YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 9-iyun, № 21, 22 (8040)

YURTNING YUKSAK ISHONCHI VA UMIDINI TO‘LA OQLASH, UNGA MUNOSIB BO‘LISH – DUNYODAGI ENG ULUG‘ BAXTDIR.

Shavkat MIRZIYOYEV

BEKOBOD TUMANIDA G‘ALLA O‘RIM-YIG‘IM MAVSUMI AVJ PALLADA!

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini hamda aholini sifatli va yetarli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash borasida qishloq xo‘jaligi sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dehqon va fermerlarning yil davomida qilgan fidokorona mehnati bugun o‘z samarasini berib, g‘alla maydonlarida hosilni yig‘ib-terib olish mavsumi qizg‘in pallaga kirdi. Ana shu mas’uliyatli jarayonni uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida Bekobod tumanida g‘alla hosilini qisqa muddatlarda va sifatli yig‘ib olishga bag‘ishlangan amaliy seminar o‘tkazildi.

Seminarda mutasaddi tashkilotlar, qishloq xo‘jaligi sohasi vakillari, fermerlar hamda mexanizatorlar ishtirok etib, mavsumni namunali tashkil etish masalalarini muhokama qildilar. Tadbir davomida hosilni nes-nobud qilmasdan yig‘ib olish, o‘rim-yig‘im texnikalarining texnik sozligi, otryadlarning shay holati, shuningdek, mavsumda mehnat qiladigan ishchi-xodimlarning moddiy-texnik va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanganlik darajasi atroflicha o‘rganildi.

Joriy yilda Bekobod tumanida 268 ta fermer xo‘jaliklari va “Globl tekstil group” agroklasteri tomonidan 12 ming gektar maydonda g‘alla yetishtirildi. Yetishtirilgan hosilni o‘z vaqtida yig‘ib olish uchun 41 ta o‘rim kombayni va 205 ta tashish texnikasi jalb etilgan. Shuningdek, mavsumni samarali tashkil etish maqsadida 41 ta otryad shakllantirilib, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilgan.

Seminar jarayonida g‘alla o‘rim-yig‘im mavsumini qisqa muddatlarda, sifatli va yo‘qotishlarsiz yakunlash, texnikalardan unumli foydalanish hamda mehnat xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya etish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Mutaxassislar tomonidan ilg‘or tajribalar va amaliy ko‘rsatmalar namoyish etilib, mavsum davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.



Bugungi kunda mavjud 41 ta kombayn to‘liq ravishda o‘rim-yig‘im ishlarida ishtirok etmoqda. Har bir kombaynning uzluksiz va samarali faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida doimiy nazorat ishlari olib borilmoqda.

Bir kunda 2 ming 229 tonna atrofida g‘alla yig‘ib olinib, mavsum boshidan jami 8 ming 763 tonna (rejaning 22 foizi) g‘alla don qabul qilish korxonasiga topshirildi.

Har bir boshoqda dehqonning zahmati, har bir hosilda esa xalqimizning rizqi mujassam. G‘alla o‘rim-yig‘im mavsumining uyushqoqlik bilan tashkil etilishi nafaqat mo‘l hosilni saqlab qolish, balki mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bekobod tumanida amalga oshirilayotgan bunday amaliy tadbirlar esa hosilni nes-nobud qilmasdan yig‘ib olish, xalqimiz dasturxoni to‘kinligini ta’minlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Sarvinoz SHERALIYEVA

PREZIDENT TASHABBUSI: QALBLARGA MUHRLANGAN MA'NAVIY IMZO

TARADDUD HAYAJONI

Olamdagi jamiki ezgu ishlar, barcha bunyodkor harakatlar dastlab yaxshi niyatdan, xushxabardan boshlanishi haq gap. Agar inson ko‘nglida bir yorug‘ orzu tug‘ilsa, u kun kelib, albatta, hayotiy voqelikka aylanadi.

Bekobod tumani bo‘ylab so‘nggi bir yilda jadal sur’atlarda boshlangan bir-biridan quvonchli voqealar, odamlar ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgan ulkan o‘zgarishlar, xonadonlarga, oilalar turmush sharoitiga kirib borayotgan xalqchil islohotlar mevasi — bularning bari kitoblarga sig‘maydi.

Prezidentimizning tumanimizga, uning 175 ming aholisiga alohida mehr va e’tibori tufayli keyingi bir yil Bekobod tumani uchun “katta sakrash” yili bo‘ldi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Avvalboshda bunday o‘zgarishlardan hayratda bo‘lgan tuman ahli oradan hech qancha vaqt o‘tmay, ushbu bemisl yangilanishlarga yeng shimarib qo‘shilib ketdi.

Qirq yil orzu qilingan, ota-bobolarimiz ko‘rmay o‘tib ketgan muhtasham ko‘priklar bitdi, poytaxtga olib boruvchi tezyurar poyezdlar uchun temiryo‘l qurilishi boshlandi, o‘nlab ta’lim, madaniyat va sport inshootlari barpo etildi, 30 ming aholi yashashiga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” massiviga poydevor qo‘yish arafasida turibmiz. Yo‘llar, elektr va ichimlik suv tarmoqlari yangilandi, umrida bozorga yolchimagan tumanga bir emas, biryo‘la ikkita zamonaviy bozor qurilmoqda.

O‘tgan qisqa muddatda jami 51 ta mahalla binolari havas qilgudek qiyofaga keltirildi, ulardan 24 tasi yangidan bunyod etildi. Atrofida infratuzilma barpo qilinib, butun tuman hududi jo‘shqin hayot tarziga o‘tdi.

Katta-kichik o‘nlab ishlab chiqarish korxonalari, tadbirkorlik subyektlari, yuzlab xizmat ko‘rsatish shoxobchalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi orqali odamlarning turmush sifati yaxshilanmoqda, minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Zafar shaharchasining qoq markazida qad ko‘targan, Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan yaqinda



ochilish marosimi bo‘lib o‘tgan Yangi Bekobod markaziy maydonining serviqor arkasi, xotira majmuasi, tuman tarixi muzeyi, eng muhimi, 35 metrli davlat bayrog‘i kun sayin qadr topib, ko‘ksi tog‘dek baland bo‘layotgan mehnatkash bekobodliklarning g‘ururi ramziga aylandi.

Mana shunday hayajonlar ichra yashayotgan paytimizda yana bir xushxabar keldiki, Bekobod tumanida boshqa sohalardan aslo kam bo‘lmagan holda ma’naviy bunyodkorlik ham jadal o‘sayotganiga shubha qolmadi.

Bundan 9 yil avval Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan “Yosh kitobxon” tanlovining respublika final bosqichi tumanimizda o‘tkazilishi har bir bekobodlik qalbiga cheksiz g‘urur va iftixor hissini jo qildi.

Davomi 2-betda

PREZIDENT TASHABBUSI: QALBLARGA MUHRLANGAN MA'NAVIY IMZO

Boshlanishi 1-betda

Lekin bu faqat iftixor emas, ulkan mas’uliyat, bizga bildirilgan katta ishonchga munosib javob berish imkoniyati ham edi. Shu bois, nafaqat mas’ul va mutasaddilar, balki butun tuman ahli ushbu ma’rifat bayramini munosib hamda yuqori saviyada o‘tkazishga astoydil tayyorgarlik ko‘rdik.

Bir-biridan ko‘rkam bunyodkorlik inshootlari sababli tobora chiroy ochayotgan Bekobod tumani endi yana bir go‘zallik — kitobxonlik nafasi va ilm ziyosi bilan har qachongidan ham yorishib ketdi.

Tumanimiz o‘rtasidan hayqirib oqib o‘tgan, bir vaqtlar ustoz Oybek domlaga ilhom ulashgan Sirdaryoning so‘lim qirg‘oqlari, Pirimqul Qodirov va Muhammad Ali singari zabardast adiblarga ta’lim-tarbiya bergan Bekobod quchog‘i yana ulkan mutolaa maydoniga aylandi.

Biz yurtimizning 42 nafar eng zukko, aziz farzandiga mezbonlik qilish sharafiga muyassar bo‘lgan edik. Bekobod kitob yog‘dusiga, ilm nuriga to‘ldi. Qurilish jabhalarida kun-u tun mehnat qilayotgan mohir ustalar, dalalarda yerga urug‘ qadayotgan dehqonlar, ipak qurti boshida bedor bo‘lgan zahmatkash pillachilar, beshik tebratayotgan kelinchaklar, nuroniy otaxon va onaxonlar, qo‘yingki, hamma-hammaning qalbida kitob bayramining hayajoni uyg‘ondi.

KITOB UZRA VATAN JAMLANDI

18-may kuni tumanimizning keng jamoatchiligi ishtirokida jonajon O‘zbekistonimizning barcha hududlaridan kelgan 42 nafar bilimdon va kitobxon farzandimizni, ularga hamrohlik qilgan bobo-buvilarini, ota-onalarini, nufuzli hakamlar va Yoshlar ishlari agentligi mas’ullarini katta shodiyona ruhi, karnay-surnay sadolari va non-tuz bilan kutib oldik.

Prezidentimiz nutqlaridan birida “Kitob o‘qishga ishtiyoqmand, ilmga chanqoq va zehnli farzandlarimiz timsolida ko‘z oldimizda buyuk ajdodlarimizga munosib ma’rifatli avlod shakllanmoqda”, degan edi. Darhaqiqat, avtobusdan tushib kelayotgan 10-30 yoshli kitobxonlar ana shu ishonch bilan aytilgan so‘zlarning hayotiy isboti edi.

Ularning har birini xuddi o‘z farzandlarimizdek bag‘rimizga mahkam bosdik, chin dildan qutladik, respublika bosqichida omadlar tiladik. Chunki ular final bosqichiga yetib kelgunicha qancha tunlarni tonglarga ulab, mutolaa qilganini, maktabdan, oliygohdan, turmush qurgan qizlar esa uy yumushlaridan, boladan, qaynona-qaynota xizmatidan ortib, tunlari kitobga mashg‘ul bo‘lganini biz ham chuqur anglaymiz.

Ularni tuman ixtisoslashtirilgan maktab binosida puxta tayyorlangan va asosiy bellashuvlar bo‘lib o‘tadigan pavilyonga kuzatib qo‘yar ekanmiz, biz — bekobodliklar ham ota-onalar o‘z farzandlarini kuzatib turadigan katta monitorlar atrofiga hayajon va muxlislik kayfiyati bilan jam bo‘ldik.

Shu o‘rinda bir jihatni aytmasak bo‘lmaydi. To‘g‘ri, hammamiz ham kitob o‘qiymiz. Biroq o‘qigan va uqqan ma’nolaringni ulkan izdihom qarshisida turib, minglab kuzatuvchilar, nufuzli hakamlar va salobatli ekspertlarning sinchkov nigohi ostida so‘zlab berish juda mushkul ekanini ich-ichimizdan his qildik.

Mir Alisher Navoiy bobomizning “Oson ermas bu maydon ichra turmoq...” degan teran falsafasini shu yerda o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Quvonarlisi, garchi ota-onalar, kuzatuvchilar har qancha hayajon tuysak ham asl bilimdon va kitobxonlar o‘z salohiyatini namoyish qilishda chin jasorat namunasini ko‘rsatdi.

Kuchli bilim va xotira, kitoblardan egallangan ilm va hayrat, ota-onalarning duosi, eng muhimi, davlatimiz rahbarining yuksak ishonchi barcha ishtirokchilarga beshta shart davomida mustahkam qanot bo‘ldi.





Farzandi sahnaga chiqqanda monitor qarshisida ko‘zda yosh bilan teppa-teng pichirlayotgan ota-onalar, nabirasini duo qilib turgan bobo-buvilar, shogirdi ortidan parvona bo‘lgan ustozlar, opasi yo akasini qo‘llab-quvvatlash uchun kelgan jajji va murg‘ak izdoshlar — bularning bari Bekobod tumaniga yangi ilhom va betakror hissiyotlar baxsh etdi.

Bizni hayajonlantirgan yana bir quvonchli holatni ham aytishimiz joiz. Bekobod tumanidagi 42-maktabning 7-sinf o‘quvchisi, oddiy suvchining farzandi Odinaxon Suvonqulova bu yilgi “Yosh kitobxon” tanlovining respublika bosqichida 10-14 yoshlilar o‘rtasida ishtirok etgani, Toshkent viloyati va tumanimiz sharafini munosib himoya qilgani qalblarimizni g‘ururga to‘ldirdi.

Ayniqsa, Namangan viloyatidan tashrif buyurgan yosh kitobxon, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Dilafro‘z To‘ychiyeva garchi jismoniy imkoniyati cheklangan bo‘lsa ham, butun tanlov davomida kuchli bilim va matonatini namoyish qilgani nafaqat ishtirokchilar, balki Bekobod yoshlari uchun ham ibrat bo‘ldi.

“Men 8 marta operatsiya bo‘lganman, — dedi Dilafro‘z. — Og‘ir tushkunlikda yurgan kezlarim mana shu kitobxonlik tanlovi haqida eshitib qoldim. Meni hayotga qaytargan, o‘zimga ishonchni uyg‘otgan ushbu tanlov tufayli yangidan tug‘ilgandek his qilganman o‘zimni!”.

Yoki avtohalokat tufayli turmush o‘rtog‘i bevaqt vafot etib, ikki farzandini yolg‘iz ulg‘aytirayotgan surxondaryolik ishtirokchi Fazilat Diyorova ko‘rsatgan eng yuqori natija ham barchani birdek hayratga soldi.

“Boshimga tushgan kutilmagan baxtsiz hodisani va ayriliq dardini faqat kitobxonlik orqali yengib kelmoqdaman. Bugun g‘oliblik shohsupasida turarkanman, ko‘z oldimdan o‘sha og‘ir kunlar bir-bir o‘tmoqda. Biroq kitoblar olami meni hamisha qayg‘u va tushkunlikdan asradi. Buning uchun umrim bo‘yi kitoblarga va ushbu tanlovga ta’zimdaman”, deydi Fazilat ko‘zda yosh bilan.

Shunda tushundikki, kitob va mutolaa faqat ma’naviy ozuqa va ilm emas, hayotning past-u baland sinovlarida inson irodasini toblaydigan, unga ruhan madadkor bo‘ladigan mo‘jiza hamdir.



Hakamlar hay’ati a’zosi, sevimli shoirimiz Eshqobil Shukur tanaffus paytida bir iftixorni alohida ta’kidladi: “Bu yilgi barcha qatnashchilar favqulodda zukko va bilimdon. Bu, hech shubhasiz, yurtimizda kitobxonlikka bo‘lgan e’tiborning yil sayin rivojlanib borayotgani mevasidir”.

Chindan ham, ulkan ekranlar orqali har uchala yosh toifasidagi kitobxonlarning chiqishini kuzatar ekanmiz, Qoraqalpog‘istondan Andijongacha, Toshkentdan Surxondaryogacha bo‘lgan hududlardan kelgan bu bilimdonlar o‘z hududlari sharafini himoya qilish hamda Prezidentimiz sovg‘asiga munosib bo‘lish uchun bor kuch-g‘ayratini, salohiyatini ishga soldi. Maydonda — kuchlilar, ularning bilimiga bosh mezon esa adolat bo‘ldi.

Avvalroq bu kitobxon qizimiz “Kitobxon kids” respublika tanlovida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan edi. Odinaning ushbu yutug‘i tumanimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ajoyib namuna bo‘ldi va uning xonadonida tuman jamoatchiligi tomonidan 5000 ta kitobdan iborat kutubxona tashkil etib berildi. Endi 14 yoshli qizchamizning uyida o‘z shaxsiy kutubxonasi bor.

Prezidentimizning ezgu maqsadlari ham aslida shu, ya’ni har bir oila kitobga do‘st bo‘lsin, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimiz kitob bilan birga ulg‘aysin. Chunki oilalarda kitob o‘qilishi jamiyatning yuksalishi va yutug‘idir.

Davomi 3-betda

PREZIDENT TASHABBUSI: QALBLARGA MUHRLANGAN MA'NAVIY IMZO

Boshlanishi 2-betda

Bunday ezgu ishlar jadal davom ettirilib, tumanning bosh maydonida Bekobod markaziy kutubxonasini barpo etish boshlandi. Barcha sharoitlarga ega bo‘ladigan zamonaviy bu ziyo maskani mustaqilligimizning 35 yillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilishi haqida eshitib, bir quvonchimizga o‘n quvonch qo‘shildi. Bunday kutubxonalar endi tumandagi 51 ta mahallaning har birida tashkil etiladigan bo‘ldi.

Shuningdek, o‘tgan bir yil davomida “Har maktabga 100 kitob” tashabbusi va boshqa madaniy tadbirlar doirasida 60 ta umumta’lim va 3 ta xususiy maktabga 20 mingta eng sara adabiyot sovg‘a qilindi.

Ushbu kitoblarni topshirish tadbirlari chinakam ma’rifat bayramiga aylanib ketdi. Chunki ushbu tadbirlar doirasida tumanimizga 500 dan ziyod olim, taniqli shoir va yozuvchilar, senatorlar, jurnalistlar va san’atkorlar tashrif buyurdi.

O‘tgan yili tumanimizda Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan o‘tkazilgan Hosil bayrami bir ajoyib jihati bilan ko‘pchilikning yodida qoldi. Ya’ni ushbu bayramga bag‘ishlab tashkil etilgan uloq-ko‘pkari musobaqasida bosh sovrin sifatida 1000 ta kitob qo‘yilgani, mohir chavandoz va polvonlar aynan mana shu g‘oyat qimmatli ma’naviy boylikka erishish uchun astoydil kuch sinashgani butun respublikaga xushxabar bo‘lib yoyildi.

Tumanimizda kitobga bo‘lgan shunday hurmat-ehtirom “Yosh kitobxon” tanlovi bu yil aynan Bekobodimizda o‘tkazilishiga poydevor bo‘lgani biz — ziyolilar qalbini cheksiz g‘urur va iftixorga to‘ldirdi.

Davlatimiz rahbari har gal kitobxonlik haqida so‘zlaganida “Biz bugun bolalarimizning qo‘liga kitob bersak, ertaga ular mamlakatimizga buyuk kashfiyotlar va ulug‘vor ishlar tuhfa etadilar”, deb ta’kidlaydi.

Biz bu so‘zlar naqadar haqiqat ekaniga Bekobod bag‘rini kitobning zavq-u shavqiga to‘ldirgan yoshlar, mutolaa madaniyatiga yanada kuchli turtki bergan “Yosh kitobxon” tanlovi misolida guvoh bo‘ldik.

MUHTASHAM YAKUN

To‘rt kun davomida barchaning qalbiga muhrlanib ulgurgan muhim tanlov nihoyasiga yetib borar ekan, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayev juda quvonchli xabarni yetkazdi. Ya’ni “Yosh kitobxon” tanlovi tarixida ilk marotaba bosh sovrin, ya’ni Prezident sovg‘asini bu yil davlatimiz rahbarining shaxsan o‘zi topshiradi. Ana endi yoshlar ko‘zidagi faxr-u iftixorni, ota-onalar qalbidagi shodlikni ko‘ring!

Tanlov jarayonidagi his-hayajonlar bir taraf bo‘ldi-yu, ushbu xushxabar shodligi hammani ruhlantirib yubordi. O‘zingiz tasavvur qiling, munosib ishtirokchilar va g‘oliblarni shaxsan Prezidentimizning o‘zi qutlasa, barcha ishtirokchilar bilan shaxsan uchrashsa, bu katta baxt-ku axir!

Nihoyat natijalar e’lon qilinib, Bekobod tumani bag‘ri tabriklar-u shodon qiyqiriqlar, sevinch ko‘z yoshlari-yu guldastalarga to‘lgan bir paytda biz — bekobodliklar hammadan ham xursand edik.

Boisi, chekka va olis, qoloq tuman deb atab kelingan Bekobodimiz kitobxonlik va ma’rifat tantanasiga mezbonlik qildi. Ushbu tanlovni yuqori saviyada o‘tkazishdek ishonchni oqlashga butun jamoatchilik birlashib harakat qildik.

Tadbir yakunida so‘z olgan hay’at raisi, professor Bahodir Karimning “Qayerda kitobxonlar yig‘ilsa, qayerda kitob haqida fikr aytilsa, o‘sha joy mamlakatning ma’naviy markazi sanaladi. Men bugun Bekobod tumanini ana shunday markaz deb bilaman. Chunki tanlovni hozirgacha poytaxtimizda qanday o‘tkazgan bo‘lsak, bu yerda ham xuddi shu darajada — yuqori saviyada tashkil qilingan. Yurtimizning 14 hududidan kelgan bolalar Bekobodda o‘tgan ushbu tanlov haqidagi yorqin taassurotlarini o‘zlari bilan olib ketadi va umrbod faxrlanib gapirib yurishadi”, deya e’tirof etgani har bir tumandoshimiz qalbini to‘lqinlantirib yubordi.

Jigarbandimizdek bo‘lib qolgan yosh kitobxonlar va ularning hamrohlarini kuzatar ekanmiz, ularning ko‘zidagi quvonch va minnatdorlikni ko‘rib, o‘zimizga bildirilgan ishonchni oz bo‘lsa-da uddalaganimizga behad shod edik. Yana bir quvongan jihatimiz — ertaga bu qorako‘z yoshlar davlatimiz rahbari bilan uchrashish baxtiga muyassar bo‘lgani edi.

Shu bois, butun tuman ahli ular bilan qayta-qayta suratga tushib, bemisl havas va duolar bilan poytaxtga kuzatdik.

Ertasiga — 22-may kuni ushbu qorako‘zlarni butun mamlakatimiz tanidi, tan oldi va havas qildi. Yurtimiz yetakchisi yana bir ulkan loyihaga — Milliy kitobxonlik harakatiga start berar ekan, avvalo, “Yosh kitobxon” tanlovi va ishtirokchilariga alohida e’tibor qaratdi. Tadbir davomida yoshlarni tabriklar ekan, “Hech qachon unutmanglar, aziz o‘g‘il-qizlarim! Ziyoli va ma’rifatli xalqni dunyoda hech bir kuch yenga olmaydi”, deya ta’kidladi.

Garchi asosiy sovrin — avtomashina sohiblariga havas qilgan bo‘lsak-da, o‘sha yerda hozir bo‘lgan 42 ishtirokchiga birdek nasib qilgan oliy mukofot bizni g‘oyat xursand qildi. Bu mukofot Prezident bilan uchrashish baxti, bevosita suhbatlashish va birga suratga tushish sharafi edi.

Shu o‘rinda bugungi yoshlarga havas qilib aytamizki, biz uzoq yillar maktabda dars berib, jamoat faoli bo‘lib butun millatni birlashtiradigan bunday kitobxonlik harakatini ko‘rmaganmiz. Endi ayting, yillik mukofot fondi 240 ming dollar, birinchi o‘rinni olganga 50 ming dollar, qayerda bor bunday ezgu harakat!

Davlatimiz rahbari ushbu yangi va keng miqyosli kitobxonlik harakati mohiyatini tushuntirar ekan “Har qanday millatning buyukligi, avvalo, uning ilmga bo‘lgan munosabatida, kitobxonlik madaniyatida namoyon bo‘ladi. Bugun start olayotgan dastur mamlakatimizda kitobxonlikni mutlaqo yuksak darajaga olib chiqishiga ishonchim komil”, deb yoshlarimizni ruhlantirdi.

Shunday ezgu maqsadlar yurtimizni kitobxon mamlakatga aylantirishini o‘ylab, biz bekobodliklar ham cheksiz kuch va ilhomga yo‘g‘rildik. Farzandlarimiz, kelajak avlodlarimiz taqdiri uchun barchamizdan ko‘p qayg‘urayotgan Prezidentimizga dil-dilimizdan rahmatlar aytdik.

Umuman, davlatimiz rahbarining ziyolilarga, kitobxonlarga, adib va shoirlarga, madaniyat va san’at namoyandalariga ko‘rsatayotgan cheksiz e’tibor va e’tirofi uchun biz o‘qituvchilar va ijod ahli hamisha chuqur ta’zimdamiz. So‘zimiz nihoyasida mamlakatimiz yetakchisiga va’da berib aytamizki, Bekobod tumani milliy kitobxonlik harakatida ham eng ilg‘or va peshqadam hududlardan biri bo‘ladi. Chunki endi bekobodliklar qalbida Prezidentimizning ulkan ishonch va e’tiborlari hamda “Yosh kitobxon” tanlovining unutilmas taassurotlari o‘chmas ma’naviy imzo bo‘lib muhrlandi.

Umiya HAYDAROVA,
O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi

Ashurali BOYMUROD,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir,
“Do‘stlik” ordeni sohibi

G‘animat ABDUG‘OFUROVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi

“Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2026-yil 2-iyundagi 110-sonidan olindi.

“Xalq nazorati” platformasi

JAMOATCHILIK NAZORATI YANGI BOSQICHDA

Aholi murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish, hududlardagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishda zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish bugungi kunning muhim talablaridan biridir. Shu maqsadda qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida Bekobod tumanida “Xalq nazorati” platformasi faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlab yuborildi.

Mazkur tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-oktyabrdagi “Aholi muammolarini hal qilishda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Toshkent viloyati hokimining tegishli farmoyishi ijrosini ta’minlashga qaratilgan.

“Xalq nazorati” platformasi fuqarolarga o‘z hududlaridagi muammolar haqida tezkor xabar berish, ularning yechimi yuzasidan mas’ul tashkilotlar faoliyatini kuzatish va natijalarni monitoring qilish imkonini beruvchi zamonaviy elektron tizimdir. Platforma orqali ichimlik suvi ta’minoti, elektr energiyasi, tabiiy gaz, yo‘l infratuzilmasi, chiqindi xizmatlari, kommunal soha va boshqa ko‘plab yo‘nalishlardagi muammolar bo‘yicha murojaatlar qabul qilinadi. Eng muhimi, har bir murojaat tegishli tashkilotlarga yo‘naltirilib, uning ijrosi nazorat ostiga olinadi.

Platforma faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida ishchi guruh tashkil etilib, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Bu esa tizimning hududlarda yanada samarali ishlashi, murojaatlarni ko‘rib chiqish sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, aholiga vaqtinchalik noqulaylik tug‘diradigan holatlar — jumladan, suv, gaz, elektr energiyasi ta’minoti, chiqindi xizmatlari yoki yo‘llardagi ta’mirlash ishlari sababli yuzaga keladigan uzilishlar haqida platforma orqali oldindan xabardor qilib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa fuqarolarning kundalik faoliyatini rejalashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Platforma orqali kelib tushadigan barcha murojaatlar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ko‘rib chiqiladi. Mas’ul tashkilotlar tomonidan muammolar bartaraf etilgach, bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizimga kiritiladi va murojaat muallifiga natijalar haqida axborot taqdim etiladi.

Tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda tegishli tashkilotlar rahbarlari murojaatlar bilan ishlash, belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish va ularning natijadorligini muntazam tahlil qilib borish uchun mas’ul etib belgilangan.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali murojaatlarni tahlil qilish, ustuvor muammolarni aniqlash hamda xizmatlar sifatini yaxshilash bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy etish ko‘zda tutilgan.

Bu esa aholining platformadan foydalanish faolligini oshirib, hududlardagi dolzarb muammolarni aniqlash va bartaraf etishda jamoatchilik ishtirokini yanada kuchaytiradi.

“Xalq nazorati” platformasi shunchaki murojaatlar tizimi emas, balki fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi ochiq, shaffof va samarali hamkorlik mexanizmidir. Mazkur platformaning to‘liq va samarali faoliyat yuritishi aholi muammolarini tezkor hal etish, davlat xizmatlari sifatini oshirish hamda hududlarni yanada obod va farovon qilishga xizmat qiluvchi zamonaviy jamoatchilik nazorati tizimini shakllantiradi.

Bugun har bir fuqaroning faolligi, bildirayotgan taklif va murojaatlari ertangi kun taraqqiyoti hamda hudud ravnaqining muhim omiliga aylanmoqda. “Xalq nazorati” esa ana shu ezgu maqsadlarga erishishda ishonchli va samarali platforma sifatida xizmat qiladi.

Akrom MAMADALIYEV

MILLIY O‘ZLIGIMIZ VA RUHIYATIMIZNI IFODALASH UCHUN IJOD VA SAN’ATDAN TA’SIRLIROQ VA KUCHLIROQ VOSITA YO‘Q.

Shavkat MIRZIYOYEV

MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA KENG MIQYOSLI CHORA-TADBIRLAR BELGILANDI



Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-iyun kuni madaniyat va san’at sohasi vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Unda adabiyot, madaniyat va san’at namoyandalari, shoir va yozuvchilar, aktyor, dramaturg va rejissyorlar, qo‘shiqchi, sozanda va kompozitorlar, rassom, haykaltarosh, hunarmandlar, san’atshunos olimlar ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida madaniyat va san’at xalq ma’naviyati, jamiyat tafakkuri va yoshlar tarbiyasida beqiyos o‘rin tutishini ta’kidladi.

Bugun dunyoda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash kuchayib borayotgani, bunday sharoitda kitob, teatr, kino, musiqa va adabiyot jamiyatning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydigan eng ta’sirchan vositalar ekani qayd etildi.

Avvalo, ijodkorlarni rag‘batlantirish va yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi. Teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg‘u, tasviriy va amaliy san’at kabi 21 ta yo‘nalish bo‘yicha ijodiy birlashmalar tashkil etiladi. Ularga ustoz ijodkorlar, vazirlar va yirik kompaniyalar rahbarlari hamrais bo‘ladi.

Bu birlashmalar tumanlardagi musiqa maktablari va badiiy jamoalar bilan ishlab, yosh iste’dodlarni aniqlash, mahalla – tuman – viloyat – respublika bosqichlarida tanlovlar o‘tkazish, g‘oliblarni gastrol safarlari, festivallar va xalqaro tanlovlarda qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadi.

Har yili “Milliy ijodkorlar qurultoyi” o‘tkaziladi. Qurultoyda yil davomida eng yaxshi natija ko‘rsatgan ijodkorlarning badiiy kechalari tashkil etilib, ular munosib taqdirlanadi.

Xususan, musiqa sohasida yangi asarlar yaratgan, xalqaro tanlovlarda g‘olib bo‘lgan yoki asarlari mamlakat va xalqaro sahnalarda ijro etilayotgan qo‘shiqchi, sozanda va kompozitorlar, adabiyot sohasida esa asarlari keng e’tirof etilgan, katta adadda chop etilgan, teatr va kinoda sahnalashtirilgan shoir, yozuvchi va dramaturglar rag‘batlantiriladi.

Bunday ijodkorlarga yil davomida har oyda 5 million so‘mdan gonorar beriladi, ular O‘zbekiston bo‘ylab samolyot, poyezd va jamoat transportidan bepul foydalanadi. Ixtisoslashgan tibbiyot markazlarida davolanish xarajatlari budjetdan qoplanadi, ularning mahorat maktablari va ijod uylari tashkil etiladi.

Yosh iste’dodlar va ularning ustozlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham muhim choralar belgilandi. 1-sentyabrdan boshlab respublika tanlovi g‘oliblariga 100 million so‘m, nufuzli xalqaro tanlov sovrindorlariga 300 million so‘mgacha mukofot beriladi, ularning ishtirok xarajatlari to‘liq qoplanadi. Ustoz va murabbiylar oylik maoshiga 100 foizgacha ustama to‘lanadi.

Har yili 100 nafar yosh davlat hisobidan xorijiy madaniyat va san’at muassasalarida ta’lim olishga yuboriladi. Yosh iste’dodlarni aniqlash, prodyuserlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ijodga investitsiya” jamg‘armasi tashkil etilib, unga yiliga 200 milliard so‘m ajratiladi.

Adabiyot sohasi vakillari uchun ham yangi imkoniyatlar yaratiladi. Shoir va yozuvchilarga yiliga kamida 50 ta eng sara asar uchun ijodiy buyurtma beriladi. Har yili o‘zbek adabiyotining 10 ta eng yaxshi asari xorijiy tillarga tarjima qilinib, mualliflar ishtirokida chet ellarda taqdimotlar o‘tkaziladi. Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi asosida chop etiladigan kitoblarning qog‘oz bilan bog‘liq xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi.

Ijodkorlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham bir qator imtiyozlar belgilandi. Har yili ming nafar shoir va yozuvchi, madaniyat va san’at vakili, muzey xodimi va rassomlarga uy-joy olish uchun ipoteka krediti dastlabki to‘lovining 50 foizi qoplab beriladi.

Boshqa hududdan kelib ishlayotgan soha vakillariga uy-joy ijarasi xarajatlari uchun Toshkent shahrida oyiga 2,5 million so‘mgacha, viloyatlarda 1 million 600 ming so‘mgacha kompensatsiya to‘lanadi.

Har yili faoliyatida yaxshi natijaga erishgan ming nafar soha xodimi davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan bepul davolanadi, yana 2 ming nafar ijodkorga davlat tomonidan tibbiy sug‘urta paketi taqdim etiladi. Kamida 10 yil ishlagan xodimlarga kasaba uyushmalari sanatoriylariga bepul yo‘llanma beriladi.

Ashula va raqs ansambllarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1-sentyabrdan boshlab ulardagi barcha xodimlarning ish haqi 2 karra oshiriladi. Raqs ustalari uchun pensiyaga chiqishda talab etiladigan raqs staji 20 yildan 15 yilga qisqartiriladi. Yangi Toshkentda qurilishi boshlangan Maqom markazi yonida zamonaviy Raqs saroyini barpo etish taklifi ilgari surildi.

Kompozitor va bastakorlar faoliyatini moliyalashtirish, ularni moddiy rag‘batlantirish tizimi ham qayta ko‘rib chiqiladi. Har yili ularga opera, simfoniya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar bo‘yicha kamida 20 ta yangi asar yaratish uchun davlat buyurtmasi beriladi.

Madaniy tadbirlarga talabni oshirish maqsadida ham yangi mexanizmlar joriy qilinadi. Har yili 500 ming o‘qituvchi, shifokor, davlat xizmatchisi, faol o‘quvchi va talabalarga, shuningdek, 100 ming ehtiyojmand oila va nogironligi bor bolalarga teatr, kino va konsertlarga bepul vaucherlar beriladi.

1-iyuldan har bir tuman va mahallada konsert-tomosha tadbirlari o‘tkazish xarajatining 20 foizgacha qismi budjetdan qoplanadi. Konsert-tomosha, xususiy teatr, kinematografiya, bolalar kontenti, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi xususiy ta’lim tashkilotlari qator soliqlardan ozod qilinadi. Adabiyot, madaniyat va san’atni rivojlantirishga yo‘naltirilgan homiylik mablag‘lari ham soliqqa tortilmaydi.

Viloyat hokimliklari huzurida alohida direksiyalar tashkil etilib, ular konsert, teatr va madaniyat saroylari zallaridan samarali foydalanish, har kuni madaniy tadbirlar o‘tkazish uchun mas’ul bo‘ladi.

Xususiy teatrlar va teatr-studiyalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1-sentyabrdan boshlab har yili 50 ta sahna asari yaratish xarajati davlat tomonidan qoplab beriladi. Ularga davlat madaniyat obyektlari bepul foydalanish uchun ajratiladi, xususiy bino ijaraga olinganda oyiga 20 million so‘mgacha xarajat budjetdan qoplanadi. Spektakllar uchun sotilgan har bir chiptaga budjetdan qo‘shimcha gonorar to‘lash tizimi joriy etiladi.

Davlat buyurtmasi asosida film yaratishda targ‘ibot va reklama xarajatlari uchun film budjetining 30 foizigacha mablag‘ ajratiladi. Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan filmlar namoyishidan tushgan mablag‘ning 50 foizi prodyuser va ijodiy guruhga qo‘shimcha rag‘bat sifatida beriladi. “Oltin humo” milliy kino taqdimotining nufuzini yangi bosqichga ko‘tarish uchun har yili 5 milliard so‘m ajratiladi.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish alohida yo‘nalish sifatida belgilandi. Yaqin yillarda madaniyat va san’atda qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish orqali kreativ iqtisodiyot hajmini 145 trillion so‘mga yetkazish maqsad qilingan. Shu maqsadda sohaning huquqiy asosi yaratilgan, Kreativ industriya parki rezidentlari uchun alohida soliq rejimi joriy etilgan. Shayxontohur tumani va Nukus shahrida yirik kreativ parklar qurilishi boshlangan.

Hunarmandchilik mahsulotlariga zamonaviy dizayn olib kirish orqali ularning qo‘shilgan qiymatini 5-10 karra oshirish bo‘yicha loyihalar amalga oshiriladi. Xalqaro dizaynerlar bilan hamkorlik kengaytirilib, Yevropa, AQSh, Janubiy va Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlarida ko‘rgazmalar ko‘paytiriladi. Har bir hududda yil davomida mega-tadbirlar tashkil qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

Uchrashuvda madaniyat va san’at sohasida ta’lim tizimini takomillashtirish masalasi ham atroflicha muhokama qilindi. Umumta’lim maktablarida musiqa, tasviriy san’at va texnologiya darslari “Art” o‘quv dasturi asosida yangilanadi. Yangi o‘quv yilidan har bir viloyatdagi 10 tadan umumta’lim maktabida tajriba tarzida art yo‘nalishi joriy etiladi.

Bunda boshlang‘ich sinflarda bolalarni rasm, musiqa va o‘yinlar orqali ijodga qiziqtirish, yuqori sinflarda esa dizayn, grafika, sun’iy intellekt va kreativ loyihalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Yurtimizdagi 326 ta musiqa va san’at, 29 ta ixtisoslashgan maktabda 95 ming o‘g‘il-qiz ta’lim olayotgani qayd etildi. Ushbu muassasalar uchun aniq samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi. Musiqa maktablari bitiruvchilari o‘z yo‘nalishidan tashqari qo‘shimcha bitta milliy cholg‘uni bilishi talab etiladi.

Yangi o‘quv yilidan 326 ta musiqa va san’at maktabi o‘qituvchilarining oyligi umumta’lim maktablari o‘qituvchilari bilan tenglashtiriladi. Umumta’lim va musiqa maktabi o‘qituvchilari ish haqiga o‘quvchilarining cholg‘ularni qay darajada ijro etishiga qarab, 20 foizgacha ustama to‘lanadi. Kamida 1,5 million o‘quvchini musiqa va san’atga jalb qilish vazifasi qo‘yildi.

Har bir umumta’lim maktabida musiqa va san’at yo‘nalishida kamida 4 tadan to‘garak tashkil etiladi. Milliy cholg‘u sotib olganlarga xarajatning 30 foizi qoplab beriladi. Imkoniyati cheklangan yoshlar uchun hududlarda “Inklyuziv ijodiy ustaxonalar” tashkil etiladi va ushbu yo‘nalishga har yili 30 milliard so‘m ajratiladi.

Kadrlar tayyorlash tizimi ham qayta ko‘rib chiqiladi. Yangi o‘quv yilidan ixtisoslashgan maktablarga o‘quvchilar musiqa yo‘nalishida 5-sinfdan, raqs, teatr va san’at bo‘yicha 9-sinfdan qabul qilinadi. Musiqa va san’at, Estrada va sirk texnikumlari Madaniyat vazirligi tizimiga o‘tkazilib, ularga oliy maktab maqomi beriladi. Ularda o‘quv jarayoni uch yillik dastur asosida tashkil etiladi.

Madaniyat va san’at yo‘nalishidagi oliygohlarda “dual ta’lim” yo‘lga qo‘yiladi. Har bir talabaga taniqli ijodkorlar biriktirilib, ular yoshlarni konsert, teatr va tomoshalarda ishtirok ettirish orqali katta sahnaga tayyorlaydi. Ta’lim dasturlariga “Art-menejment”, “Kreativ industriya”, “Loyihalarni tijoratlashtirish” kabi zamonaviy mavzular kiritiladi. Talabalarning startap loyihalari uchun 10 ta oliygohga 50 milliard so‘m ajratiladi.

Soha xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha yaxlit tizim yaratiladi. Mavjud markazlar negizida Madaniyat vazirligi tizimida malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti tashkil etiladi. Mazkur institut umumta’lim maktablaridagi musiqa o‘qituvchilarining malakasini oshirish uchun ham mas’ul bo‘ladi.

– Bugun dunyoda qanday tahlikali holat, qarama-qarshilik va nizolar ro‘y berayotganini ko‘rib turibmiz. Bunday vaziyatda biz uchun milliy birlik va hamjihatlik har qachongidan ham muhim. Ishonchim komil, bu borada sizlar eng oldingi safda turib, chinakam vatanparvarlik, millatga sadoqat va fidoyilik fazilatlaringiz bilan yoshlarimizga, butun xalqimizga namuna bo‘lasizlar, – dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari soha vakillari bilan samimiy muloqot qildi, ularning fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslarini tingladi.

Sarvinoz SHERALIYEVA
tayyorladi.

E’TIROF

MUKOFOT VA G‘ALABA SOHIBLARI SHARAFLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, Bekobod farzandi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, taniqli shoir Ashurali Boymurodov “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Shuningdek, avvalgi sonlarimizda o‘zbek zamonaviy fotosan’ati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan bekobodlik serqirra ijodkor, taniqli fotorassom va jurnalist Sultonboy Dehqonovning Andijon viloyatida o‘tkazilgan Respublika rassomlar festivali-tanlovida “Eng yaxshi fotorassom” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgani haqidagi quvonchli xabar bilan bo‘lishgan edik.

Kuni kecha Bekobod tumani hokimligi tomonidan ushbu ikki faxrimizni tantanali qutlash marosimi tashkil etildi. Unda tuman hokimi, tuman tashkilotlari rahbarlari, yozuvchi va shoirlar, nuroniylar, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlar ishtirok etdi.

Tadbir davomida so‘zga chiqqan tuman hokimi Z.Nizomiddinov Prezidentimiz Farmoniga muvofiq davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘lganlar safida Bekobod vakilining ham borligi barchamiz uchun katta faxr ekanini alohida ta’kidladi.



— Ashurali Boymurodovning “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangani hamda Sultonboy Dehqonovning respublika miqyosidagi nufuzli tanlovda g‘olib bo‘lgani nafaqat ularning shaxsiy yutug‘i, balki butun Bekobod ahli uchun g‘urur manbaidir. Bu muvaffaqiyatlar tumanimiz nomini yurtimiz va xalqaro miqyosda yanada keng tanitishga xizmat qiladi, — dedi tuman hokimi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda madaniyat, san’at va adabiyot namoyandalarining fidokorona mehnati munosib qadrlanib, ularning milliy ma’naviyatimizni yuksaltirish, boy madaniy merosimizni asrab-avaylash hamda yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi xizmatlariga yuksak baho berilmoqda.

Tadbirda so‘zga chiqqan mukofot sohiblari o‘zlariga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va e’tirof uchun davlatimiz rahbariga hamda xalqimizga samimiy minnatdorlik bildirdilar. Ular bunday yuksak ishonch va rag‘bat kelgusida ham yanada samarali ijod qilish, xalqimizga sidqidildan xizmat qilish yo‘lida ularga katta mas’uliyat yuklashini ta’kidladilar.

Marosim ishtirokchilari mukofot sohiblarining ko‘p yillik samarali mehnati, boy ijodiy faoliyati va jamiyat hayotidagi munosib o‘rni mamlakatimiz taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi hamda yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini alohida e’tirof etdilar.

Bu kabi e’tirof va ehtiromlar yurtimizda iste’dod va mehnatning doimo qadrlanishi, ijod ahliga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tiborning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

QUTLOV

NAZMIY TABRIK
(Ashurali Boymurodovga)

Hazrat Navoiydan navolar topgan,
Rus tilida sevgi gulin madh etgan,
Onalarga she’riy roman yaratgan,
Bekobodlik Ashurali Boymurod,
Yurtboshidan oldi yuksak mukofot.

Ilhom izlab yurtni mudom kezadi,
Nafaqat she’r, dostonlar ham yozadi,
O‘qiganlar millat taftin sezadi,
O‘zimizning Ashurali Boymurod,
Qutlug‘ bo‘lsin, Vatan bergan mukofot!

Karimqul MAVLONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

EZGULIK

E’TIBOR VA G‘AMXO‘RLIKNING YUKSAK NAMUNASI

Davlatimiz rahbarining tashabbusi va yuksak g‘amxo‘rligi bilan joriy yilgi haj mavsumida muqaddas Makka va Madina shaharlariga yuborilgan “Prezident hojilari” haj amallarini to‘liq ado etib, Vatanga sog‘-salomat qaytib keldilar.

Toshkent viloyati hojilarini kutib olish marosimi ko‘tarinki ruhda tashkil etildi. Unda viloyat hokimligi mas’ullari, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita hamda O‘zbekiston musulmonlari idorasi vakillari, imom-xatiblar, jamoatchilik faollari va hojilarning yaqinlari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida haj safaridan qaytgan ziyoratchilar muqaddas amallarni tinch, xotirjam va barcha qulayliklar yaratilgan sharoitda ado etganliklarini alohida ta’kidladilar. Ular haj safarini yuqori saviyada tashkil etish, ziyoratchilar uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatgani uchun Prezidentimizga samimiy minnatdorlik bildirdilar.

Ma’lumki, joriy yilda respublika bo‘ylab 100 nafar “Prezident hojilari” muqaddas haj ziyoratini ado etish uchun yuborilgan bo‘lib, ular orasida Toshkent viloyatidan 7 nafar vakil ham bor edi.

Ana shunday baxtiyor ziyoratchilar safida Bekobod tumani Parchayuz mahallasida istiqomat qiluvchi Turdibekova Mahbuba ham bo‘ldi. Mahbuba opa davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar va ko‘rsatilgan yuksak e’tibor uchun cheksiz minnatdor ekanligini bildirdilar.

— Muqaddas haj safariga borish har bir musulmonning ulug‘ orzusi. Bizga ana shu sharafli imkoniyatni



yaratib bergan Prezidentimizdan behad minnatdorman. Haj amallarini barcha qulayliklar yaratilgan sharoitda, xotirjam va emin-erkin ado etdik. Yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi, davlatimiz ravnaqi uchun va yurtboshimizga uzoq umr tilab duolar qildik. Bunday e’tibor va g‘amxo‘rlikni umrbod unutmaymiz, — deydi hoji opamiz samimiy taassurotlari bilan o‘rtoqlashar ekan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash hamda ehtiyojmand aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. “Prezident hojilari” tashabbusi ham ana shu ezgu siyosatning amaliy ifodasi bo‘lib, minglab yurtdoshlarimiz qalbida chuqur minnatdorlik va mamnuniyat tuyg‘ularini uyg‘otmoqda.

Muqaddas safardan qaytgan hojilarni e’zozlash va ularga hurmat ko‘rsatish marosimi yurtimizda inson manfaatlari hamda diniy qadriyatlarga yuksak e’tibor qaratilayotganining yana bir yorqin namunasiga aylandi.

Lobar JUMABOYEVA

YANGI LOYIHA

BEKOBOD VA KOREYA HAMKORLIGI

Bekobod tumani hokimi Koreya Respublikasining chiqindilarni boshqarish, resurslarni qayta aylantirish va zamonaviy shaharsozlik yo‘nalishlaridagi yetakchi tashkilotlari vakillari bilan istiqbolli investitsiya loyihalari yuzasidan uchrashuv o‘tkazdi.

Muloqotlar davomida KORA (Korea Resource Circulation Agency) asoschisi va boshqaruv kengashi raisi Lee Myung Wan hamda koreyalik mutaxassislar tomonidan hududda ekologik barqarorlik va innovatsion rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan qator takliflar ilgari surildi.

Xususan, maishiy va sanoat chiqindilarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlash, plastik chiqindilardan muqobil yoqilg‘i va neft mahsulotlari ishlab chiqarish, chiqindilarni iqtisodiy resursga aylantirish bo‘yicha loyihalar muhokama qilindi.

Shu bilan birga, Bekobod tumanida zamonaviy “Smart City” (Aqlli shahar) konsepsiyasini joriy etish yuzasidan ham amaliy takliflar bildirildi. Loyiha doirasida aqlli transport tizimlari, energiya tejamkor texnologiyalar, raqamli boshqaruv platformalari, kommunal xizmatlarni avtomatlashtirish hamda ekologik monitoring tizimlarini yaratish rejalashtirilmoqda.

Tomonlar investitsiya hajmi, texnologiyalar transferi, zarur infratuzilmani shakllantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yuzasidan ham fikr almashdilar. Mazkur tashabbuslar nafaqat hududning ekologik holatini yaxshilash, balki yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, aholi bandligini oshirish, xizmatlar sifatini yuksaltirish va Bekobodni zamonaviy, innovatsion hamda investitsiyalar uchun jozibador hududga aylantirishga xizmat qiladi.

Akrom MAMADALIYEV

YUZLARDA TABASSUM, QALBLARDA QUVONCH

BAYRAM SHODIYONASI

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan Bekobod tumanida mehr-oqibat va saxovat ruhidagi ezgu tadbir tashkil etildi.

Tumandagi “Orom” tantanalar uyida “Zuxriddin Omad” xususiy korxonasi rahbari Zuxriddin O‘rmonov homiyligida 200 nafar kam ta’minlangan va ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun bayram dasturxoni yozildi. Tadbir davomida bolajonlarga turli ko‘ngilochar dasturlar namoyish etilib, ularga unutilmas lahzalar va bayramona kayfiyat ulashildi.

Shuningdek, tadbir doirasida 15 nafar kam ta’minlangan oila farzandining sunnat to‘yi ham ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi. Bayram tadbirida ishtirok etgan bolalarga homiy tadbirkor tomonidan esdalik sovg‘alari topshirilib, ularning quvonchiga quvonch qo‘shildi.


Tadbir davomida bolalar uchun yaratilgan shodiyona muhit, kuy-qo‘shiqlar va qiziqarli chiqishlar bayramga yanada fayz bag‘ishladi. Ota-onalar va tadbir mehmonlari bunday xayrli tashabbus yosh avlod qalbida ezgulik, mehr-oqibat va insonparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladilar.

Darhaqiqat, bolalar baxti va kamoli yo‘lida amalga oshirilayotgan bunday savobli ishlar jamiyatimizda saxovat va muruvvat an’analarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ezgu amallarga boshqosh bo‘lib, yosh avlodga quvonch ulashayotgan saxovatpesha insonlar va homiylarga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Mohidil BOBOJONOVA



MAHALLADA BIR KUN



YOSHLAR MANFAATLARI — DOIMIY E’TIBORDA

Yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish hamda tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada joylarda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o‘rganish va mavjud muammolarni hal etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi vakili Shohida To‘raqulova O‘zbekobod mahallasida bo‘lib, yoshlar yetakchisi tomonidan olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

O‘rganish jarayonida mahalladagi yoshlarning qiziqishlari, ularni kasb-hunarga o‘qitish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish hamda bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar tahlil qilindi. Yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, mavjud loyihalar va ularning natijadorligi ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, deputat yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazib, ularning taklif, tashabbus va muammolarini tingladi. Suhbat davomida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, kasbiy ko‘nikmalarini oshirish hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalalari muhokama qilindi.


Muloqot yakunida yoshlar bandligini yanada oshirish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Darhaqiqat, yoshlarning bilimli, kasb-hunarli va tashabbuskor bo‘lib voyaga yetishi mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Shu bois ularning muammo va takliflarini o‘rganish, orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda munosib shart-sharoitlar yaratish har birimizning ustuvor vazifamizdir.

Shohida TO‘RAQULOVA,
Xalq deputatlari
Bekobod tumani Kengashi deputati

KO‘RIK-TANLOV

“KELAJAK BUNYODKORLARI” ANIQLANDI



Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dod va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tashabbuskor, bilimli hamda vatanparvar yoshlarni tarbiyalash bugungi globallashgan zamonda juda muhimdir.

Shu maqsadda Bekobod tumanida yoshlarning bilim va iqtidorini namoyon etishga xizmat qiluvchi “Kelajak bunyodkorlari” ko‘rik-tanlovi tashkil etildi.

Mazkur tanlov yoshlarning intellektual salohiyati, ijodiy fikrlashi, liderlik qobiliyati va ijtimoiy faolligini yuzaga chiqarish, ularni yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surishga rag‘batlantirishda muhim maydon vazifasini o‘tadi.

Tanlovda tumandagi mahallalar hamda ta’lim muassasalaridan o‘zining faolligi, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi bilan ajralib turgan iqtidorli yoshlar ishtirok etdilar. Ishtirokchilar o‘z bilim va ko‘nikmalari, ijodiy yondashuvlari hamda yurt taraqqiyoti va jamiyat rivoji uchun muhim bo‘lgan g‘oya va loyihalarini taqdim etdilar.

Tanlov jarayonida yoshlarning erkin fikrlashi, yangicha qarashlari va kelajakka bo‘lgan intilishlari hakamlar hay’ati hamda tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, yoshlar tomonidan ilgari surilgan innovatsion tashabbuslar va ijtimoiy loyihalar ularning mamlakat ravnaqiga daxldorlik hissi yuksak ekanini namoyon etdi.

Tadbir yakunida faol va iqtidorli ishtirokchilar munosib taqdirlanib, ularga diplom va esdalik sovg‘alari topshirildi. Shuningdek, kelgusidagi o‘qish va ish faoliyatlarida ulkan zafarlar tilandi.

Bunday tanlovlar yoshlarning o‘z ustida muntazam ishlashi, ijtimoiy faolligini oshirishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashi hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, ular yoshlarning orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va iste’dodlarini kashf etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Jahongir NURMUHAMMEDOV

QADRIYAT VA AN’ANALAR

HASHAR — HAMJIHATLIK VA SAVOBLI AMAL



Qurbon hayiti arafasida Bekobod tumanida ezgulik, hamjihatlik va qadriyatlarga hurmat ruhida xayriya hashari tashkil etildi.

Bo‘ston mahallasida joylashgan Dalvarzintepa qabristonida o‘tkazilgan obodonlashtirish tadbirida Bo‘ston, Guliston, Istiqlol hamda Nazarboy mahallalarining nuroniylari ham faol ishtirok etdilar. Ular qabriston hududini tartibga keltirish, tozalash va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirib, savobli ishga munosib hissa qo‘shdilar.

Hashar davomida qabriston atrofidagi begona o‘tlar tozalanib, daraxtlar parvarish qilindi, yo‘laklar saranjomlashtirildi hamda hududning sanitariya holati yaxshilandi. Eng muhimi, ushbu tadbir orqali ajdodlar xotirasiga hurmat bajo keltirilib, milliy va ma’naviy qadriyatlarimizga sadoqat yana bir bor namoyon etildi.

Tadbir ishtirokchilari bunday xayrli ishlar nafaqat qabristonlarni obod qilish, balki mahallalarda o‘zaro mehr-oqibat, ahillik va birdamlik muhitini mustahkamlashga ham xizmat qilishini ta’kidladilar.

Darhaqiqat, xalqimizga xos hashar an’analari ezgulik, saxovat va jamoaviy birdamlikning yorqin ifodasidir. Ayniqsa, muborak Qurbon hayiti arafasida amalga oshirilgan bunday savobli tadbirlar yurtdoshlarimiz qalbida yaxshilik va xayrli amallarga intilish tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi.

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon, xonadonlarimiz fayz-u barakaga to‘lib, ezgu amallar bardavom bo‘lsin!

Jalolxo‘ja BO‘RIXO‘JAYEV,
Bekobod tumani “Nuroniy” jamg‘armasi raisi

MA’NAVIYAT



ISHCHILAR UCHUN ZIYORAT SAFARI

Bekobod tumani Qolg‘onsir mahallasida joylashgan “Mirzo Toshmurod” fermer xo‘jaligi tomonidan joriy yilning 28-may kuni xo‘jalik ishchilari uchun ma’naviy-ma’rifiy ziyorat safari tashkil etildi.

Mazkur ezgu tashabbus doirasida fermer xo‘jaligi rahbari tomonidan ishchilar Samarqand viloyatida joylashgan Imom al-Buxoriy ziyoratgohiga olib borildi. Ziyorat davomida ishchilar muqaddas maskanni ziyorat qilib, ulug‘ alloma Imom al-Buxoriy xotirasiga hurmat bajo keltirdilar hamda ma’naviy jihatdan boyib qaytdilar.

Ziyorat safari ishchilarning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish, ularning ruhiy tetikligini oshirish hamda jamoadagi hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Ishchilar bunday ezgu tashabbuslar mehnat jamoasida o‘zaro hurmat, birdamlik va ijobiy muhitni yanada kuchaytirishini ta’kidladilar.

Fermer xo‘jaligi rahbari tomonidan tashkil etilgan ushbu safar xodimlar uchun unutilmas ma’naviy tajriba bo‘lib, ularning yurtimizdagi muqaddas ziyoratgohlar va tarixiy merosga bo‘lgan hurmatini yanada oshirdi.

Gulnoza ATAMURODOVA

PEDAGOG MINBARI

“ENG YAXSHI KITOBXON” ANIQLANDI



Bekobod tumani “Kelajak” markazida maktab maslahatchilari o‘rtasida “Eng yaxshi kitobxon” ko‘rik-tanlovining tuman bosqichi o‘tkazildi. Tanlovning asosiy maqsadi yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, mutolaaga bo‘lgan mehrni oshirish, zamonaviy va klassik adabiyotlarni keng targ‘ib etish hamda eng faol kitobxonlarni aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Musobaqa uchta shart — “Tanishtiruv”, “Mutolaa bilimdoni” va “Zakovat sandiqchasi” asosida tashkil etildi. Ishtirokchilar dastlab sahnada kreativ chiqishlar orqali o‘z shaxsiyati, qiziqishlari va iqtidorini namoyon etdilar, so‘ngra berilgan adabiyotlar yuzasidan savol-javoblarda ishtirok etib, o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazdilar. “Zakovat sandiqchasi” bosqichida esa individual tarzda savol va topshiriqlarga javob berib ball to‘pladilar.

Hakamlar hay’ati belgilangan mezonlar asosida ishtirokchilarni baholab, yakuniy natijalarni e’lon qildi. Unga ko‘ra, 1-o‘rin 2-umumta’lim maktab maslahatchisi Xamdamov Abbosga, 2-o‘rin 26-umumta’lim maktab maslahatchisi Basharova Nargizaga, 3-o‘rin esa 7-umumta’lim maktab maslahatchisi Rajapova Gulandonga nasib etdi.

Tadbir qizg‘in bahs-munozaralarga boy ruhda o‘tdi. Ishtirokchilar kitob insonni komillik sari yetaklashi, qalbini boyitishi va kelajakka ishonch uyg‘otishini ta’kidlab, mutolaani hayotning ajralmas qismi sifatida qadrlash lozimligini qayd etdilar.

BOLALAR — KELAJAGIMIZ BUNYODKORI



Bolalar — jamiyatning eng katta boyligi, har bir davlatning kelajagi hisoblanadi. Ularning sog‘lom, bilimli va baxtli bo‘lib ulg‘ayishi mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Shu bois har yili 1-iyun sanasi butun dunyoda Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida keng nishonlanadi.

Ushbu bayramning asosiy maqsadi bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning ta’lim olishi, sog‘lom turmush kechirishi va har tomonlama rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratishga e’tibor qaratishdan iboratdir. Mamlakatimizda ham bolalarga alohida e’tibor berilib, yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, sport majmualari hamda zamonaviy o‘quv markazlari bunyod etilmoqda. Yosh avlodning sifatli ta’lim olishi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi va o‘z iste’dodini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bekobod tuman “Kelajak” markazida ham 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan “Bolalar — kelajagimiz bunyodkori” mavzusida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda ustozlar, ota-onalar hamda to‘garak a’zolari ishtirok etdilar. “Kelajak” markazi direktori bolajonlarni bayram bilan samimiy tabrikladi.

Bayram dasturi davomida quvnoq kuy-qo‘shiqlar, qiziqarli chiqishlar, she’rlar hamda iqtidorli bolalarning ijodiy ishlaridan namunalar ko‘rgazmasi namoyish etildi. Shuningdek, markazning “Milliy raqs” to‘garagi a’zolari ijro etgan chiroyli raqslar tadbir ishtirokchilariga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

Tadbirda nafaqat quvnoq bolalar, balki turli yo‘nalishlarda yutuqlarga erishgan iste’dodli yoshlar ham e’tirof etildi. Ular tuman, viloyat hamda xalqaro onlayn ko‘rik-tanlovlarda faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritganliklari uchun markaz tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Bunday tadbirlar bolalarga quvonch ulashish, ularning kayfiyatini ko‘tarish hamda o‘z qobiliyatlarini namoyon etishiga keng imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar baxti — xalq baxti, bolalar quvonchi esa jamiyat quvonchidir. Har bir bola mehr-muhabbat, e’tibor va g‘amxo‘rlik muhitida ulg‘ayishi lozim. Barcha bolajonlarni 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni bilan samimiy tabriklaymiz. Ularning kulgusi hech qachon so‘nmasin, qalblari doimo quvonchga to‘lsin, kelajaklari esa hamisha porloq bo‘lsin!

Oytojixon QODIROVA, Bekobod tumani “Kelajak” markazi uslubchisi

MAKTAB HAYOTIDAN

HAR BIR BOLA IQTIDORLI



Har bir bola iqtidorli va qobiliyatlidir. San’at go‘zal va betakror bo‘lgani kabi bola qalbi va uning orzulari ham ana shunday chiroyli va beg‘ubordir. Boladagi san’atga qiziqishni uning ajoyib tasavvurlaridan bilib olish qiyin emas. Buyuk rassomlar ham san’atga o‘zgacha nigoh bilan kirib kelishgan. Masalan, ispaniyalik rassom Pablo Pikasso maktabni yomon ko‘rgan. Darsda o‘tirish o‘rniga doim rasm chizgan. U o‘qituvchilariga qarata: “Men raqamlarni ko‘rmayapman, men shakllarni ko‘ryapman”, deb aytgan. Masalan, “2” raqamini u oqqushning bo‘yniga, “0”ni esa ko‘zga o‘xshatgan. Bu bilan u kubizm yo‘nalishining asoschisi va eng buyuk namoyandasiga aylangan.

Fransiyalik rassom Klod Mone maktabni “qamoqxona” deb atagan. U darsda o‘tirishdan ko‘ra dengiz bo‘yida sayr qilishni va qog‘ozga rasm chizishni afzal ko‘rgan. Uning daftarlari dars yozuvlari o‘rniga o‘qituvchilari va sinfdoshlarining hajviy karikaturalari bilan to‘la bo‘lgan. U san’at tarixida, birinchi navbatda, impressionizm oqimining asoschisi sifatida nom qoldirgan.

Agar bola osmonni faqat ko‘k emas, balki pushti, binafsha yoki sariq aralashmasida tasvirlasa bu uning quyosh chiqishi yoki quyosh botishini kuzatganligini bildiradi. Demak, bolada koloristik – rang sezish qobiliyati bor.

Agar bola haqiqatda yo‘q narsalarni, masalan, uchar baliqlar yoki noodatiy maxluqlarni chizsa va ularning har bir qismini mantiqan tushuntirib bera olsa, bu uning fantaziyasi juda boy ekanligini ko‘rsatadi.

Pikasso va Mone kabi buyuklar ham o‘z ijodlarini namoyon etishda aynan mana shunday dunyoni o‘zgacha ko‘rish bilan boshlashgan.

Nargiza SUYARQULOVA,

Bekobod tumani 8-umumta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fani o‘qituvchisi

BOLALAR SPORTI



MEDALLAR SHODASI — G‘ALABA NATIJASI

Bekobod tumani Paxtakor mahallasi hududidagi 49-maktab sport zalida mahalla yetakchisi Lochinbek Mannonov tashabbusi bilan tashkil etilgan kikboksing to‘garagi bugungi kunda o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda. Ushbu to‘garakda muntazam shug‘ullanib kelayotgan yosh sportchilar o‘z mahoratini oshirib, turli yirik musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqdalar.

Joriy yilning 15–17-may kunlari Andijon viloyatida o‘tkazilgan “Xotira turniri” ochiq musobaqasida kikboksing sport turi bo‘yicha Bekobod tumanidan 11 nafar yosh sportchi ishtirok etdi.

Musobaqa yakunlariga ko‘ra, 5 nafar sportchi faxrli 1-o‘rinni, 6 nafar sportchi esa 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Eng quvonarlisi, musobaqada ishtirok etgan barcha sportchilar sovrindor bo‘lib, Bekobod tumani sharafini munosib himoya qildilar.

Bu natijalar yosh sportchilarning tinimsiz mehnati, murabbiylarning fidoyiligi hamda sportga berilayotgan yuksak e’tiborning yorqin ifodasidir. Shuningdek, bu kabi yutuqlar yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirib, ularni yangi g‘alabalar sari ruhlantirmoqda.

Yosh sportchilarimizni ushbu yutuqlari bilan samimiy muborakbod etamiz hamda kelgusi musobaqalarda yanada ulkan g‘alabalar tilab qolamiz.

Ismoil BABAYEV

DOLZARB MAVZU

GIYOHVANDLIK ILLATIGA QARSHI TIZIMLI KURASH

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish, ushbu jinoyatlarning oldini olish hamda ularga barham berish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, afsuski, bu turdagi jinoyatlar hali ham davom etmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqish, aholi salomatligi, ayniqsa, yoshlar va millat genofondini samarali himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PF–207-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– mamlakat aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda unga sabab bo‘layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo‘yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimini belgilash;

– voyaga yetmaganlar va yoshlarni giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalardan har tomonlama himoya qilishni barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi sifatida belgilash hamda ularning bu boradagi mas’uliyatini tubdan oshirish.

Shuningdek, Farmon doirasida voyaga yetmaganlar va yoshlarni narkojinoyatlardan himoya qilish maqsadida Bosh prokuratura, Oliy Sud, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi hamda Bojxona qo‘mitasining bir qator takliflari ma’qullandi. Jumladan:

– har qanday narkojinoyatni voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan yoki ularni jalb qilgan holda sodir etishni jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilash;

– voyaga yetmaganlarni kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni iste’mol qilishga jalb etganlik uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoiy javobgarlikni joriy etish;

– ta’lim muassasalari, talabalar yotoqxonalari, bolalar oromgohlari hamda ularga tutash hududlarda kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik choralarini ikki baravargacha kuchaytirish;

– voyaga yetmaganlarni ushbu muhitlarda giyohvandlik vositalarini iste’mol qilishga jalb qilganlik uchun o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosini belgilash;

– ayrim narkojinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jazoni o‘tash muddatidan ilgari shartli ozod qilishni cheklash tartibini joriy etish va boshqa choralar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi afv etish masalalari bo‘yicha komissiya tomonidan mahkumlarning afv etish haqidagi murojaatlarini ko‘rib chiqishda,



aholi genofondiga qarshi sodir etilgan jinoyatlarning jamiyat uchun o‘ta xavfli ekaniga alohida e’tibor qaratish taklifi ham ma’qullandi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur Farmon giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, aholi salomatligi va millat genofondini samarali himoya qilish hamda kelgusida bunday jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ikromjon TURSUNOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod tuman sudining raisi

TIBBIY MASLAHAT

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI DAVOLASHDA TABIIY USULLAR



Sarimsoq qadimdan insoniyat tomonidan nafaqat taomlarga maza beruvchi mahsulot, balki tabiiy shifo vositasi sifatida ham qo‘llanib kelinadi. Zamonaviy tibbiyot ham sarimsoq tarkibidagi ayrim biologik faol moddalar yurak-qon tomir tizimi salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tasdiqlamoqda. Oddiy qilib aytganda, sarimsoq qon tomirlarni toza va elastik holatda saqlashga yordam beruvchi tabiiy mahsulotlardan biridir.

Sarimsoq tarkibida organizm uchun foydali bo‘lgan ko‘plab moddalar mavjud bo‘lib, ular orasida allicin, antioksidantlar, C vitamini, selen va kaliy muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, allicin moddasi eng asosiy faol komponent hisoblanadi. Sarimsoq maydalanib yoki ezilganda aynan shu modda hosil bo‘ladi. Allicin tabiiy antibakterial xususiyatga ega bo‘lib, qon tomirlarni himoya qilishga yordam beradi. Sarimsoqning o‘tkir hidi ham aynan shu modda bilan bog‘liq.

Yuqori qon bosimi yurakka qo‘shimcha yuklama yuklaydi. Qon tomirlar torayganda yurak qonni haydash uchun ko‘proq kuch sarflashga majbur bo‘ladi. Sarimsoq esa qon tomirlarning biroz kengayishiga va bo‘shashishiga yordam berishi mumkin. Natijada qon aylanishi yaxshilanadi, yurakning zo‘riqishi kamayadi va arterial qon bosimi biroz pasayishi mumkin. Oddiy misol bilan aytganda, tor quvurdan suv qiyin oqadi, keng quvurdan esa oson o‘tadi. Qon tomirlarida ham xuddi shunday holat kuzatiladi.

Qonda ortiqcha yog‘ va xolesterin to‘planishi qon tomirlarida qatlam hosil qiladi. Bu holat ateroskleroz deb ataladi. Vaqt o‘tishi bilan bu jarayon qon aylanishining yomonlashishiga, yurakda kislorod yetishmovchiligiga hamda infarkt va insult xavfining oshishiga olib kelishi mumkin. Sarimsoq esa “yomon” LDL xolesterin miqdorini kamaytirishga, qon tomir devorlarini himoya qilishga va yog‘ qatlamlari hosil bo‘lishini sekinlashtirishga yordam berishi mumkin. LDL xolesterin xalq orasida “yomon xolesterin” deb yuritiladi, chunki u qon tomirlarida to‘planib qoladi.

Sarimsoq qonning quyuqlashishini kamaytirishga ham yordam berishi mumkin. Bu esa tromb hosil bo‘lish xavfini pasaytiradi. Tromb — qon tomir ichida hosil bo‘ladigan ivigan qon bo‘lagi bo‘lib, u yurak yoki miya tomirlarini to‘sib qo‘ysa, infarkt yoki insult yuzaga kelishi mumkin.

Eng foydali usul — yangi sarimsoq iste’mol qilish. Kuniga 1–2 bo‘lak sarimsoqni ovqat bilan birga me’yorida iste’mol qilish tavsiya etiladi. Sarimsoq maydalangandan so‘ng 5–10 daqiqa qoldirilsa, allicin moddasi yaxshiroq hosil bo‘ladi. “Ko‘p iste’mol qilinsa, ko‘proq foyda beradi” degan tushuncha noto‘g‘ri, chunki ortiqcha sarimsoq oshqozonga zarar yetkazishi mumkin.

Gastrit, oshqozon yarasi, past qon bosimi, qon ketishga moyillik hamda qonni suyultiruvchi dorilarni qabul qilayotgan bemorlar sarimsoqni ehtiyotkorlik bilan iste’mol qilishlari lozim. Masalan, aspirin yoki klopidogrel qabul qilayotgan bemorlarda sarimsoqni ortiqcha iste’mol qilish qon ketish xavfini oshirishi mumkin.

Ko‘pchilik sarimsoqni asal, limon yoki zanjabil bilan birga iste’mol qiladi. Bu aralashmalar immunitetni qo‘llab-quvvatlash va umumiy salomatlikni yaxshilashga yordam berishi mumkin, biroq ular yurak kasalliklarini to‘liq davolamaydi. Tabiiy vositalar shifokor tomonidan belgilangan davolash o‘rnini bosa olmaydi, ular faqat qo‘shimcha yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Xulosa shuki, sarimsoq yurak va qon tomirlar salomatligi uchun foydali tabiiy mahsulotlardan biridir. U qon aylanishini yaxshilash, xolesterin darajasini kamaytirish va tromb hosil bo‘lish xavfini pasaytirishda yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, uni me’yorida iste’mol qilish va surunkali kasalligi bor bemorlarning shifokor tavsiyalariga amal qilishi muhim hisoblanadi.

Fayoz MAMATQULOV,
Bekobod tuman Tibbiyot birlashmasi Xos oilaviy shifokorlik punkti mudiri

XABARDORMISIZ?!

AYRIM HUDUDLAR AHOLISIGA BOG‘CHA PULI KAMAYTIRIB BERILADI



2026-yil 21-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kelgusi yillar uchun mo‘ljallangan dasturlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, hududni kompleks rivojlantirishga qaratilgan qator imtiyoz va qo‘llab-quvvatlash choralari joriy etilmoqda.

Mazkur qarorga asosan, joriy yil 1-apreldan boshlab ma’muriy boshqaruv jihatdan Nukus shahri tarkibiga kiruvchi “Qaratau” va “Bestobe” mahalla fuqarolar yig‘inlari aholisi uchun davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola ta’minoti bo‘yicha ota-onalar to‘loviga 50 foizlik kamaytiruvchi koeffitsientlar qo‘llanib kelinmoqda.

Shuningdek, maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari hamda mehmonxona (joylashtirish vositalari) xizmatlari yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun 2027-yil 1-yanvardan 2040-yil 1-yanvargacha yer solig‘i va mol-mulk solig‘i stavkalari 90 foizga kamaytirilgan holda qo‘llanilishi belgilangan.

Bundan tashqari, 2028-yil 1-yanvargacha Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida joylashgan tijorat banklari balansida bo‘lgan mol-mulk obyektlari bozor narxida qayta baholanib, 10 yil davomida foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri realizatsiya qilinadi.

Shu bilan birga, realizatsiya qilingan mol-mulk obyektlari bo‘yicha tuzilgan oldi-sotdi shartnomalariga muvofiq, to‘lovlar 6 oy ichida to‘liq amalga oshirilganda, shartnoma qiymatining 25 foiziga teng miqdorda chegirmalar berilishi nazarda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Madina ISHANKULOVA,
Bekobod tumani FHDY bo‘limi 1-toifali inspektori

Tumanimiz tarixidan

YURTNING FIDOYI O‘G‘LONI

Bekobod tumanining 100 yillik tarixi davomida juda ko‘p ulug‘ insonlar o‘z Vatani, xalqning kelajagi, yurtning farovonligi yo‘lida yashab, mehnat qilib, o‘zlarini fido qilganlar. O‘tgan asrning 20-yillaridagi fuqarolar urushi davri deysizmi, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi tiklanish yillari deysizmi, insoniyat koinotni ilk bor zabt etib, yuksalish yillarining boshlanishi-yu mamlakatning mustaqillikka erishgan suronli yillari deysizmi – har bir davrning o‘z qahramonlari, o‘z yetakchilari bo‘lgan.

Biz bugun o‘z davrining qahramonlaridan biri, yurtning fidoyi o‘g‘loni, umri dalalarda, kolxozlarni tuzish va tiklash bilan, xalqning og‘irini yengil qilish bilan o‘tgan Abduqodir Shukuraliyev haqida hikoya qilmoqchimiz. E’tiboringizga ustozimiz Malik Egamning “Bekobodnoma” I kitobidan Abduqodir Shukuraliyev haqidagi ocherkidan parcha havola etamiz.

Nurali JALIL



ABDUQODIR SHUKURALIYEV

Nurali o‘g‘li Turdiali ota hikoyasi:

- Abduqodir Shukurali boboning uchinchi o‘g‘li.

Otasi, opalari pinjida yoshligidan ro‘zg‘orga qarashdi. Mashoq terdi. Xosda tashkil etilgan paxta punktida qanor-qanor paxta tashidi, qorovul bo‘ldi. Paxta sotuvchi Mavlon hojining tachankasiga kucherlik qilib, Bekobodni, Turkistonni kezdi.

Abduqodir Shukuraliyev 1930-yillar boshida Samarqanddagi qishloq-xo‘jalik texnikumining agronomiya kulliyotini tugatib kelgach, rayon yer shu’basi, Qo‘shchilar soyuzini boshqardi.

Ishbilarmon, oriyatli, milliy g‘urur hissi bilan shakllanib kelayotgan Abduqodirni ham 1937-yil boshlangan mash’um qatag‘on izlab topadi: NKVD ayg‘oqchilari uning ham iziga tushadi. Abduqodir Shukuraliyevga ustozi, Bekobodning oriyati, nomusi uchun kurashgan mard, polvon Mavlon hojining fojiali qismati tanish edi…

Abduqodir NKVDga tutqich bermadi, yashirinib yurdi. 1937-yilning oxirlarida G‘onchi rayoniga ketib, o‘sha yerda MTSda uchastka agronomi bo‘lib ishladi.

Yaxtan, Qushtayir, Jarqushtayir, Qizili, Dam, Uyas, Uyimi, To‘qqizchelak, Boyovul kabi o‘n ikkita qishloqdagi mayda xo‘jaliklarni texnika bilan ta’minlab turgan tashkilotning tadbirli rahbarlaridan biri bo‘lib, 1942-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi.

G‘onchi rayoni paxtachiligi bevosita Shukuraliyev nomi bilan bog‘liq.

Urushning dastlabki yillarida bevosita Shukuraliyevning tashabbusi bilan sobiq “1-May” kolxozining 300 gektar maydoniga paxta ekildi.

Men buni aniq bilaman. Chunki Shukuraliyev meni o‘zi bilan G‘onchiga olib ketgan edi.

1939-1942-yillari o‘sha yerda o‘qituvchilik qildim.

1942-yilda Shukuraliyev hayotida o‘zgarish bo‘ldi. O‘sha yili Bekobod rayoniga Yo‘ldosh aka Bobojonov degan kishi raykom sekretari bo‘lib keldi.

Ma’lumki, Bobojonov 1924-40-yillar Tojikiston respublikasi xalq nazorati komitetini boshqargan edi. Bobojonovning peshonasiga urush yillarida Bekobodni boshqarish yozilgan ekan, u kishi, har qalay, bu vazifani epladi.

Yo‘ldosh aka ishni mayda xo‘jaliklarni birlashtirish, ularga tadbirkor, ishbilarmon kadrlarni rahbar qilishdan boshladi.

Xosdagi “Qizil Yulduz”, “Zarbdor”, Karl Marks nomli kichik xo‘jaliklarni birlashtirib, bitta kolxozga aylantirdi. Unga Ismadiyor Jo‘raboyevni rais, Shukuraliyevni G‘onchidan chaqirtirib, agronom etib tayinladi.

1944-yil rahbarlar tavsiyasi bilan hozirgi “Dehqonobod” jamoa xo‘jaligi hududida joylashgan “Qushchi” kolxoziga rais bo‘lib 1946-yilgacha ishladi.

1945-61-yillar sobiq Dzerjinskiy nomli (hozirgi “O‘zbekiston” jamoa xo‘jaligi) kolxozni boshqardi.

Shukuraliyev tadbirkor rahbar edi. “Qo‘shchi” kolxoziga rais bo‘lib borganida qishloqning yarim och odamlarini to‘ydirishga kirishdi. O‘zi bosh bo‘lib, ikkita tegirmon qurdi. Yo‘q bug‘doyga tegirmon ne kerak, deguvchilar bo‘ldi. Tegirmon bitgach, qo‘shchiliklar G‘onchidan aravada bug‘doy tashidilar.

Kunda, kunora har uyda tandirlar qizara boshlaganini ko‘rgan o‘shal odamlar endi Abduqodir raisni hurmat qiladigan bo‘ldilar.

Rais raisgina emas, qo‘shchiliklarning farzandi, aniqrog‘i, kuyovi bo‘ldi. Garchi Xosda Iqbol nomli xotini, Juman, Ashirjon ismli farzandlari bo‘lsada, xotinining roziligini olib, Qo‘shchida eri urushdan qaytmagan, Qorasoch, Iqbol nomli qizlari bilan beva qolgan Xadicha ismli ayolga uylandi.

Shukuraliyevning rahbarlik faoliyati Dzerjinskiy nomli kolxozda yaqqol namoyon bo‘ldi. Kolxoz ekonomikasining yuksalishi, qishloq xo‘jaligining takomili, paxtachilik, chorvachilik rivoji, xalqning turmush sharoitining yaxshilanishi, obodonlashtirish ishlarining ko‘lami kabi sohalarning bari Shukuraliyev nomi bilan bog‘liq.

Toshkent oblastining shuhrati 1950-yillarda uchta rais: Orjonikidze rayonidagi “Qizil O‘zbekiston” kolxozi raisi Matqobulov, Yangiyo‘ldagi “Sharq yulduzi” kolxozining raisi Hamroqul Tursunqulov, Bekobod rayonidagi Dzerjinskiy nomli kolxoz raisi Abduqodir Shukuraliyevlar orqali butun respublikaga, Ittifoqqa tanildi.

Abduqodir Shukuraliyev qayerda bo‘lmasin, Toshkentdami, Moskvadami, Sochidami, Rashidov bilan Turkmanistonga borganida Asxaboddami – hamma yerda qalbida ona yurti – Bekobodning jajji qiyofasini olib yurdi.

Mehnati orqali obro‘ qozongan Shukuraliyev orden va medallar oldi. 1957-yili Mehnat Qahramoni bo‘ldi.

1961-yil Shukuraliyev raislikdan olib tashlandi. Rayonda bo‘lib o‘tgan sud Shukuraliyev, buxgalter, kassirni aybdor deb topdi.

Rais hukmdan norozi bo‘lib O‘zbekiston SSR Oliy Sudiga shikoyat qildi. Men ukam Said polvon bilan sud jarayonida ishtirok etdik. Sudda Shukuraliyev so‘nggi so‘zda bor gapni ochiq aytdi. Shundan so‘ng Oliy Sud hukmni uch yilga qisqartirdi.

Aniq esimda: Oliy Sud hukmini O‘zbekiston Oliy Soveti tasdiqlashi lozim edi. Shu vaqtda biz Sovet raisi Yodgor Nasriddinov, kotibi Rixsiboy Sohiboyevlar qabulida ham bo‘ldik. Ammo hech bir natija chiqmadi. Shunda ukam Said polvon dedi: “Haqiqat tantana qilmaguncha Bekobodga qaytish yo‘q. Kerak bo‘lsa, Moskvaga ham boramiz. Pulni esa Toshkentdan ham topsa bo‘ladi”.

Bir palakdan tarqagan uch o‘g‘lon oriyat, nomusni himoya qilishning yo‘llarini qidira-qidira toliqib, Pushkin nomli park tomon yurdik. Shu yerda bizni baxtli tasodif kutib turgan ekan.

Abduqodir aka bir odam bilan quchoqlasha ketdi. Bilsak, u kishi Oliy Sovetning kotibi Rixsiboy Sohiboyevning akasi Karim aka Sohiboyev ekanlar. Karim aka bir necha yil Toshkent oblast yuridik konsultatsiya idorasining boshlig‘i bo‘lib ishlaganida Bekobodga oblast mas’ul vakili sifatida bir necha marta kelgan, Shukuraliyevning kolxozida, xonadonida mehmon bo‘lgan, dasturxonidan non, tuz-namak totgan edi. Bu uchrashuv Shukuraliyevga berilgan jazoni bekor qildi, rais afv etildi.

Xo‘sh, rais oqlandi. Nima qilsin? Bekobodga qaytib borsinmi, yo‘qmi? Maslahat so‘rab Usmon Yusupovning oldiga bordi. O‘shanda Usmon Yusupov Yangiyo‘ldagi “Xalqobod” sovxoziga direktor edi… Eski qadrdonlar uchrashib, ikki o‘xshash achchiq qismatni tahlil qildilar.

Shukuraliyev 1962-67-yillar o‘sha sovxozdagi bo‘limda boshliq, 1968-70-yillar Yangi Yer rayonidagi “Farhod” sovxozida agronom, bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishladi.

1971-yil Bekobodga qaytib keldi, bog‘dorchilikka sho‘ng ‘idi. So‘ng Ittifoq miqyosidagi nafaqaga chiqdi…

Abduqodir Shukuraliyevdan qator solih farzandlar qoldi. Ilohim farzandlari ota ruhini shod qilsinlar.

Abduqodir ota bilan suhbatdan:

Keyingi paytlarda mahalliy rahbariyat, ayrim raqiblarim mening xalq orasidagi faoliyatimni “reviziya” qilishga o‘tdi.

Ular mening insonligim, kimgadir ota, kimgadir tog‘a, kimgadir boboligimni unutib, faqat rahbarligimni o‘zimga xoh oshkora, xoh pinhon pesh qila boshlashdi.

Mana, mening “ayblarim”.

“Abduqodir Shukuraliyev “xalq dushmani” sifatida otilib ketgan Fayzulla Xo‘jayevning singlisi Robiyabonuni uyida olib yurgan. Unga marhamatlar ko‘rsatib uy solib bergan”.

To‘g‘ri. Robiyabonuga marhamatlar ko‘rsatdim. Ma’lumki, qatag‘on yillaridan keyin Sretinko qishlog‘ida komendatura tashkil etilgan edi. Hozirgi kolxoz pravleniyesi o‘rnida choyxona bo‘lib, ana shu choyxonada surgun qilingan, qatag‘on qilingan “xalq dushmanlari”ning ayollari, singillari, qizlari istiqomat qilardi. Raisman. Bir kun kolxozda yupungina kiyingan ayolni ko‘rib qoldim. Uyimga olib keldim.

Ayol turmush o‘rtog‘im, bolalarimga yoqib qoldi. Oilamiz a’zosiga aylandi.

Men u ayolning Fayzulla Xo‘jayevning singlisi ekanini anchadan keyin bilib qoldim. Garchi bu hol oilamiz orasida sir tutilsa-da, negadir tez tarqab ketdi.

Keyin Fayzulla Xo‘jayevning Rossiyadagi qizi ammasini izlab keldi, qabrini ko‘rsatdim…

Men savob deb o‘ylagan narsa kimlargadir gunoh bo‘lib ko‘rindi.

Ikkinchi aybim: ikki xotinli Shukuraliyev nevaralari, o‘g‘illariga yetti kunlab to‘y berdi, uloq berdi, kolxozni o‘mardi.

To‘g‘ri. Ma’lumki, birinchi xotinimdan bir o‘g‘il, bir qiz bor edi. Ikkinchi xotinim Xadicha urushdan qaytmagan eridan qolgan ikki qizi bilan menga turmushga chiqqan edi. Xudo ikkovimizga yana qator farzandlar berdi.

Katta o‘g‘lim Juman o‘g‘illik bo‘ldi. Otasiga va bobosiga sohib bo‘lsin deb, ismini Sohibjon qo‘ydik. Keyinchalik o‘zim ham qizlarimdan so‘ng ikki o‘g‘illik bo‘ldim. To‘y to‘yga ulandi. O‘ylab ko‘rgin, bolam, garchi men rais bo‘lganim bilan eng birinchi galda erkak kishiman, otaman, o‘zimga yarasha menda ham zurriyod ko‘rsam, vorislarim bo‘lsa, to‘y qilsam, do‘st-dushman ichida boshimni mag‘rur tutsam, degan hammada ham bo‘luvchi armonlarim bor edi.

Ammo ba’zilarning xayolidan mening o‘sha armonlarim butunlay o‘chgan edi. Ular faqat mening rais ekanligimni bilar edi, xolos. Otaligim, odamligim unutilgan edi. Holbuki o‘gay qizim Qorasoch fojeali halok bo‘lganda, keyinroq o‘sha nevaram Sohibjon ishlab chiqarishda halok bo‘lganda, ularning fojeasining mening raislik qismatimga bog‘langanligini so‘zlar bilan aytolmayman. Chunki mening aybim shuki, tamom, men raisman.

Uchinchi aybim:

Shukuraliyev – Mehnat Qahramoni. Uncha-muncha rahbarlarga gap bermaydi. Sharof Rashidov, Nuriddin Muhiddinov bilan gaplashadi.

Raykom sekretari I.K.Husniddinov u yoqda tursin, obkom sekretari Rasul G‘ulomovni ham pisand qilmaydi kabi.

To‘g‘ri. Ba’zan shunday bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqarishda nimalar bo‘lmaydi, deysan.

Ammo meni tushunarsan, deb o‘ylayman, bolam. Uzoq yillik mehnating, mehnatning ortidan kelgan obro‘, ozgina shuhrat ma’lum ma’noda kishini mag‘rur qilar ekan, g‘urur hissini uyg‘otar ekan. Men ishladim, uzoq yillar ishladim. Kolxoz o‘n yetti yil mening rahbarligimda, ko‘zim o‘ngida o‘sdi. Men nima ish qilgan bo‘lsam xalqim uchun, Bekobodim uchun qildim.

Jamoatchilik minbari



Joriy yil boshidan Toshkent shahrida sodir bo‘layotgan yong‘inlar jamoatchilik orasida xavotir uyg‘otmoqda. Ayniqsa, ushbu hodisalarning savdo majmualari va tijorat obyektlarida yuz berayotgani masalaga yanada jiddiy yondashishni talab qilmoqda. Bu voqealar tasodifiy holatlarmi yoki xavfsizlik tizimidagi muammolarning natijasimi, degan savol bugun ko‘pchilikni o‘ylantirmoqda.

YONG‘INDAN QOLGAN IZLAR…

Kun.uz xabariga ko‘ra, 2026-yil 31-yanvar kuni poytaxtdagi “Aviator” savdo majmuasida joylashgan “Korzinka” filialida yong‘in sodir bo‘lgan. Ushbu fojea oqibatida 3 yoshli bolaning vafot etgani hodisaning naqadar og‘ir ekanini ko‘rsatdi. Oradan ko‘p o‘tmay, 11-fevral kuni “Novza” metrosi yaqinidagi yana bir savdo obyektida, “Korzinka” tarmog‘iga qarashli filialda yong‘in yuzaga kelgani haqida xabarlar tarqaldi. Rasmiy tafsilotlar to‘liq ochiqlanmagan bo‘lsa-da, ketma-ket sodir bo‘layotgan bunday hodisalar jamoatchilik e’tiborini tortdi.

21-fevral kuni tongda “Izza” qurilish mollari bozori hududida ham yong‘in sodir bo‘ldi. Yaxshiyamki, ushbu hodisada jabrlanganlar haqida ma’lumot berilmadi. Biroq bir oy ichida bir nechta yirik savdo va qurilish obyektlarida yong‘in kuzatilgani muammoning tizimli tus olayotganidan darak berishi mumkin.

Mart va aprel oylarida ham bunday hodisalar davom etdi. Xususan, yangi qurilayotgan “Xonsaroy” turar-joy majmuasi hududida yong‘in qayd etildi. Bu esa nafaqat foydalanilayotgan, balki hali to‘liq ishga tushmagan obyektlarda ham xavfsizlik talablariga yetarli darajada rioya qilinmayotganini ko‘rsatadi. 5-aprel kuni esa Abu Saxiy savdo majmuasida yong‘in yuz berdi. Qalampir.uz xabar bergan ushbu hodisa savdo markazlarida yong‘in xavfsizligi masalasi hanuz dolzarbligicha qolayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Yuqorida keltirilgan bu yong‘inlarni oddiy tasodif sifatida baholash qiyin. Aksincha, ular texnik nosozliklar, elektr tarmoqlaridagi muammolar, qurilishdagi kamchiliklar yoki yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilmayotganining belgisi bo‘lishi mumkin.

Savdo majmualari kun davomida minglab fuqarolar tashrif buyuradigan maskanlardir. Shu sababli bu joylarda yong‘in xavfsizligi tizimlari to‘liq va uzluksiz ishlashi zarur. Signalizatsiya, o‘t o‘chirish vositalari, ventilyatsiya tizimi, evakuatsiya yo‘laklari hamda chiqish eshiklari doimo soz holatda bo‘lishi kerak. Favqulodda vaziyatlarda odamlarni tez va xavfsiz evakuatsiya qilish imkoniyati esa hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mutaxassislar ta’kidlaganidek, yoz mavsumida elektr tarmoqlariga tushadigan yuklama ortadi. Bu esa yong‘in xavfini yanada kuchaytirishi mumkin. Demak, profilaktik choralar kuchaytirilmasa, bunday hodisalar soni oshishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois mas’ul tashkilotlar tomonidan shaffof va chuqur tekshiruvlar o‘tkazilishi, aniqlangan kamchiliklar tezkor bartaraf etilishi lozim. Savdo majmualari rahbariyati esa xavfsizlik masalasini ustuvor vazifa sifatida ko‘rib, xodimlarni muntazam tayyorlab borishi hamda texnik tizimlar ustidan doimiy nazorat o‘rnatishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, savdo va qurilish obyektlarida kuzatilayotgan yong‘inlar jiddiy ogohlantiruvchi signal sifatida baholanishi kerak. Agar bugundan boshlab aniq va qat’iy choralar ko‘rilmasa, kelajakda bundan ham og‘ir oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Oltin OZODOVA

Taqriz

DUNYO MAMLAKATLARI BO‘YLAB ILMIY SAYOHAT



Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori Laziz Rahmatovning “Dunyo mamlakatlari” asarining elektron nusxasi qo‘limga tushganida, uni ko‘rib, “Bunchalik salmoqli kitobni qachon o‘qib tugatarkinman?” deb o‘ylagandim. Biroq kitobning qiziqarli va mazmunan boyligi meni o‘ziga rom etdi. Har bir sahifani mutolaa qilar ekanman, go‘yo dunyoning turli mamlakatlariga ilmiy sayohat qilgandek bo‘ldim va asarni qisqa muddatda katta qiziqish bilan o‘qib chiqdim.

Kitob sahifalarida jahon davlatlarini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan muhim ilmiy-ommabop ma’lumotlar jamlangan. Unda mamlakatlarning geografik joylashuvi, iqtisodiy taraqqiyoti, siyosiy tizimi, tarixi va ijtimoiy hayoti haqida batafsil ma’lumotlar berilgan bo‘lib, o‘quvchini dunyo mamlakatlarini chuqurroq anglashga undaydi.

Asarda mamlakatlarning geografik joylashuvi muhim omil sifatida talqin etiladi. Negaki geografik o‘rin davlatning iqlimi, tabiiy resurslari, transport aloqalari va iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, dengizga chiqish imkoniyatiga ega mamlakatlar savdo va logistika sohasida muayyan ustunliklarga ega bo‘lsa, ichki hududlarda joylashgan davlatlar boshqa yo‘nalishlarda taraqqiyotga intiladi.

Kitobda mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati ham atroflicha tahlil qilingan. Xususan, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining ulushi ko‘rsatilib, rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi farqlar yoritib berilgan. Shuningdek, xalqaro savdo, eksport-import aloqalari va davlatlarning global iqtisodiyotdagi o‘rni haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Siyosiy tizimlar masalasi ham e’tibordan chetda qolmagan. Asarda respublika, monarxiya, federativ va unitar boshqaruv shakllari haqida qisqa, ammo aniq va tushunarli ma’lumotlar berilgan. Bu esa o‘quvchiga turli mamlakatlarning siyosiy tuzilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kitobning yana bir muhim jihati unda mamlakatlarning madaniy va tarixiy taraqqiyotiga keng o‘rin berilganidir. Har bir davlatning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, diniy tarkibi va tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida berilgan ma’lumotlar asarni nafaqat geografik qo‘llanma, balki o‘ziga xos madaniy ensiklopediya darajasiga olib chiqadi.

Shaxsan menga eng ko‘p yoqqan jihatlardan biri — har bir mamlakatning O‘zbekiston bilan bo‘lgan aloqalariga alohida e’tibor qaratilganidir. Diplomatik, siyosiy, iqtisodiy va turizm sohalaridagi hamkorliklar keng va tushunarli tarzda yoritilgan.

O‘zim pedagog sifatida faoliyat yuritayotganim bois, asarning yana bir afzalligi e’tiborimni tortdi. Kitob sodda va ravon tilda yozilgani sababli uni maktab o‘quvchilari, abituriyentlar hamda talabalar bemalol mutolaa qilishi mumkin. Ayniqsa, geografiya, iqtisodiyot va xalqaro munosabatlar yo‘nalishlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun ushbu asar foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Dunyo mamlakatlari” asari dunyo haqidagi bilimlarni kengaytiruvchi, tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi hamda global jarayonlarni chuqurroq anglashga yordam beruvchi muhim manbadir. Ushbu kitob orqali o‘quvchi nafaqat mamlakatlar haqida ma’lumot oladi, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi va bugungi dunyodagi o‘rnini ham teranroq tushunib yetadi.

Istardimki, mazkur asar yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalaridan munosib o‘rin egallasin. Yoshlarimiz undan samarali foydalanib, dunyoqarashini kengaytirsa, bu, shubhasiz, ilm-ma’rifat ravnaqiga xizmat qiladi.

Munira SULTON

Matbuotga ilk qadam

SUHBATDOSH BILAN SUHBAT



Assalomu alaykum, suhbatdosh! Ha, hayron bo‘lmang, siz mening suhbatdoshimsiz. Yozganlarimni o‘qiy boshladingizmi, demak, mening suhbatdoshimga aylandingiz. Keling, bugun har yili 27-iyun kuni mamlakatimizda nishonlanadigan Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni haqida suhbatlashamiz.

Bolaligimdan gazeta va jurnallarni o‘qishga qiziqishim juda kuchli edi. Boshlang‘ich sinflarda “G‘uncha” jurnalini, keyinchalik esa “Gulxan” va boshqa yoshlarbop nashrlarni kanda qilmay mutolaa qilardim. Yuqori sinflarda o‘qiyotgan paytlarimda markaziy nashrlarni ham o‘qiy boshladim.

Bir kuni xayolimga ajoyib fikr keldi: “Men ham xabar yozsam-chi?” Bu istak menga tinchlik bermadi. Oltinchi sinfda o‘qib yurgan paytimda, 1970-yillar atrofida, “Pobeda” kolxozidagi sabzavotchilik brigadasi faoliyati haqida xabar yozib, tuman gazetasiga yubordim. O‘sha paytda gazeta haftada uch marta chop etilar edi. “Yozganim chiqarmikan?” degan o‘y bilan har bir sonini intiqlik bilan kutardim. Nihoyat, o‘n kunlardan so‘ng yuborgan xabarim gazetada bosilib chiqdi. Ana endi ko‘ring, o‘sha damlarda dunyoda mendan baxtli inson yo‘q edi!

Yana bir hayotiy voqeani aytib bermoqchiman. O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida “G‘alaba” hududida sug‘orish ishlarini takomillashtirish maqsadida “Bekobod” kanali qurilishi boshlandi. Biz istiqomat qilayotgan Nayman qishlog‘i yaqinida qurilish ishlari olib borilayotgan paytda kanal haqida maqola yozishga qaror qildim.

Ishchilar oldiga borib, boshliq kimligini so‘radim. U bilan tanishib, kanal qurilishi haqida tuman gazetasiga maqola yozish niyatim borligini aytdim. U menga biroz ishonchsizlik bilan qaradi. O‘shanda 8-sinfda o‘qirdim, ko‘ziga yosh boladek ko‘ringan bo‘lsam kerak.

— Yozganing gazetaga chiqadimi o‘zi? — deb so‘radi u.

— Albatta chiqadi! — deb javob berdim.

Chunki yozganlarimning aksariyati gazeta sahifalarida e’lon qilinar edi. Oradan o‘n besh kun o‘tgach, maqolam bosilib chiqdi. Gazetani olib borib, qurilish boshlig‘iga ko‘rsatganim hanuz yodimda.

She’rlar ham mashq qilib turardim. Tuman gazetasiga yuborgan she’rlarimning ayrimlari chop etilar edi. Ijod jarayonida she’riyatning o‘ziga xos jozibasini his qilib, uning naqadar nozik va yuksak san’at ekanini anglay boshladim.

Yettinchi sinfda o‘qiyotganimda “G‘uncha” jurnaliga uchta she’rimni yubordim. Biroz vaqt o‘tgach, jurnal tahririyatidan maktub oldim. Unda bir adabiy xodim shunday savol yozgan edi:

— Bizga she’rlar yuboribsan. To‘g‘risini yozib yubor: bu she’rlarni qaysi kitobdan ko‘chirgan-san?

Maktubni o‘qib hayron bo‘ldim. Ammo xafa bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq quvondim. Chunki she’rlarimni qaysidir kitobdan olingan deb o‘ylashlari men uchun katta e’tirof edi. Darhol javob xati yozib, plagiat menga yot ekanini va she’rlarni o‘zim yozganimni bayon qildim. She’rlarimdan bittasi jurnal sahifasida e’lon qilindi. Shunga ham shukr qildim. Havaskor ijodkor uchun bu katta voqea edi. Markaziy nashrlarga kirib borishning ilk darvozasi men uchun aynan “G‘uncha” jurnali orqali ochilgan edi.

Tuman gazetasi qoshida “Yosh muxbirlar universiteti” tashkil etilgan edi. Har oyda bir marta o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda tahririyat xodimlari xabar va maqola yozish sirlarini o‘rgatar, mavzudan kelib chiqib nimalarga e’tibor berish, qaysi jihatlarni kengroq yoritish kerakligi haqida bilim va ko‘nikmalar berar edilar.

Abdunabi Haydarov, Yo‘lchiboy Rahimov, Zokirjon Yusupov, Ahmad Soipov, Habibulla Abdurahmonov, Nasrullo Dehqonov kabi yosh muxbirlar mashg‘ulotlarda faol qatnashar edilar. Keyinchalik Abdunabi Haydarov va Habibulla Abdurahmonov oliy o‘quv yurtida jurnalistika yo‘nalishida tahsil olib, Toshkentdagi markaziy nashrlarda faoliyat yuritdilar.

Men ilk bor tuman gazetasini o‘qiy boshlaganimda bosh muharrir Robiya Abdushokirova edi. Keyinchalik Mirsobir Yunusov, Fayzulla Ziyodullayev, Rajabboy Bagirov, Karimqul Mavlonov, Yusuf Ergashevlar bosh muharrir bo‘ldilar. Tahririyat xodimlari Mashrab Ro‘zimatov, Tursunali Usmonov, Komiljon Begmonov, Bahodir Abduvaliyev, Abdunabi Haydarov va Abdusalom Abdullayevlardan jurnalistik mahorat sirlarini o‘rganganmiz.

Ana shunaqa gaplar, aziz suhbatdosh! Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha fidoyilarini samimiy tabriklayman. Sog‘ va omon bo‘linglar!

Said BOLTABOYEV,
Nayman qishlog‘i

Bir asar taassuroti

“MING BIR KITOB” SINOATLARI



Shu kunlarda qo‘limga bir kitob tushib qoldi: muallif – Sharifjon Ahmad, nomi – “Ming bir kitob”. Muqovaga ishlangan surat darhol e’tiborimni tortdi. Sara asarlarni sifatli tarzda chop etishi bilan nom qozongan “Akademnashr”ning ushbu noshirlik yechimini Premium andoza deb atagim keldi. Kaminaga azaldan tekkan bir dardmi bu, bilmadim-u, hartugul, har safar yangi kitobni qo‘lga kiritganimda, zumda mutolaaga kirishib ketolmayman. Boshqa birovlarning nazaridan xoli xonamga qamalib olaman-da, kitobni ko‘rinarli joyga qo‘yib, atrofida aylanaman, aylanaveraman. Ora-sirada qo‘limni uzatgan bo‘laman-u, ushlashga botinmasdan shu zahoti yana tortib olaveraman. Xuddi ko‘z ostiga olib qo‘ygan o‘ljasiga tashlanishga shaylanib turgan mushukka o‘xshatvoraman o‘zimni shunday paytlarda. Oxiri, bunday taysallashlarimdan o‘zim ham xunob bo‘lib, kitobni shartta qo‘lga olaman-da, allanechuk muborak marosimga hozirlanayotgan kabi, hali bosmaxona bo‘yoqlari hidi arimagan muqovasi-yu ichlarini chuqur-chuqur hidlab ko‘raman. Bunisi bilan ham shunday bo‘ldi. Uyga kela solib tepadagi hujramga ko‘tarildim. Kitobni avvaliga xontaxta ustiga qo‘ndirib qo‘yib, ancha vaqt tomosha qilib o‘tirdim. Keyin qo‘lga allanechuk xush yoqar muqovasini asta silab, sahifalarini varaqlay boshladim.

* * *

Ushbu qissa yerga ursa ko‘kka sapchir o‘smir bola – o‘zining aytishicha, xuddi Ortega-i-Gasset deganday qo‘shaloq ismli Abdulqayum-Mashrabning sarguzashtlari haqida ekan. Yorug‘ dunyoga kelgan ilk onlaridan boshlab – tug‘ruqxonada ekanidayoq, yo‘q, undan ham avval – hali onasining qornidayoq ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan ajabtovur ajabliklarga yo‘liqib, xayolga kelmagan voqealar qahramoniga aylanadi u. Tug‘ruqxonada boshqa chaqaloqlar qatorida yotib, labining ustida no‘xatdek xoli bor go‘bdikkina qizginaga oshiq-u beqaror bo‘ladi. Endigina tug‘ilgan chog‘ida orqasiga shapatilab yig‘latgan doya xotindan qasos olish rejasini ishlab chiqadi va bu rejani hech kechiktirmasdan amalga oshiradi.

Birinchi sinfga chiqqanida esa yoshgina muallimaga pinhona ko‘ngil qo‘yadi. Sevimlisining e’tiborini qozonish yo‘lida ilm-u savodning zarang toshini betinim kemiraverib, sinfning eng oldi a’lochisiga aylanadi. Biroq, vaqti kelib, qizginaning maktabdagi amaliyot davri tugab, olis yurtiga qaytib ketgach, ayriliq jarohatlagan jimirtak yuragini qo‘ltiqlab qolaveradi. Ayriliq dardida yana eski fe’l-atvori junbishga kelib, avvalgidan chandon shumtaka va bezori bolaga evriladi. Maktab tugul, atrof-deparada ham undan bezor bo‘lmagan birov qolmaydi hisob. Bir qarasangiz, o‘tganning o‘rog‘i bilan ketganning ketmonini tortib oladi. Maktabdan uyga qaytar yo‘llarida boshqa bolalarni yo‘ldan urib, birovlarning bog‘larida hil-hil pishgan olma-yu anorlarga qiron keltiradi, keyin kiyimlarini apil-tapil yechib-uloqtirib, ariqlarda itbaliqday yayraydi. Boshqa safar esa qo‘y-qo‘zilari-yu, mol-hollarini yaylovga haydab, tili osilib qolgunicha to‘p ketidan sangillab chopadi. Xizmat mashinasi bexato nishonga olingan xo‘ppasemiz kolxoz raisining changalidan bazo‘r qochib qutuladi. Har ta’tilda uzoq yurtlarda havo almashtirib kelishni odat qilgan mudarris bobosi bilan O‘rusiya sari safar qiladi. U yerlarda bir zamonlar boy berilgan muallimasiga o‘xshash, beli boshmaldoqdek mo‘rchamiyon qizlarga jovdirab tikiladi. Ta’tillar arib, safarlar qarigach, bobosi ikkovlon “moya-tvoya” deb chuldiragancha Masko‘pchi boylar maqomida qishloqqa qaytib kelishadi.

* * *

Shu zaylda oradan yillar o‘tib boradi. Abdulqayum-Mashrab yettinchi sinfga qadam qo‘ygani mahal eng qadrli kishisi, har ishda maslahatgo‘yi – mudarris bobosi Haqqa qovushadi. Tengsiz bu kulfatdan bemisl g‘ussaga botgan bola yolg‘izlikda g‘amini aritish ilinjida eski uyning chordog‘iga chiqadi va u yerda bobosidan qolgan ko‘hna sandiqqa duch keladi. Sandiqni ochib, allaqachon urfdan qolgan bir sidra kiyimlar ostidan ranglari unniqib, muqovasi ham titilib bitgan semizgina, ammo nomsiz va sahifalari bo‘m-bo‘sh g‘alati kitobni topib oladi. Bir payt tushuniksiz nimadir sodir bo‘ladi-yu, bolaning atrofini shaffof, biroq yiqib bo‘lmas qalin qubba o‘rab oladi va shu paytgacha biror harf bilinmagan kitob sahifalari satrlarga to‘la boradi. Yigitchamiz sinoatli qubba ichra o‘tirgancha, unga taqdim etilayotgan g‘aroyib holoti-voqealar mutolaasiga tutinadi.

* * *

Shu yo‘sin chordoqda berkinib o‘tirgan bola bilan birga biz ham mo‘g‘uliy Chingizxonga qarshi qoyilmaqom qilich qayragan jahongirning jasoratlariga shohid bo‘lamiz, sirli satrlari bilan Chin-Mochinlik malla hukmdor saroyini yo‘qlikka hukm etgan shoirning ayanchli qismatidan voqif bo‘lamiz. “To‘rtinchi qavatdagi sarg‘ish deraza”ni ko‘rib, tilsimlari bisyor sinoatga bexos duch kelgan kabi bizning ham yuragimiz hapriqa boshlaydi. Qadar va qismat fursati deya bilingan ikki oy juftlashgan tunda qumloqda adashgan bir qalandarga hamroh bo‘lib, baliqquyruq parilar tuzog‘iga tushamiz. Rohibsifat zotning ro‘yolarida u bilan birga adashib, u izlagan Uni biz ham uzoq izlaymiz va gulda tosh unmasligiga iqror bo‘larak, U Izlaganga qul bo‘lmoqlik maqomi ishqida Yo‘lda yana bardavom badar ketamiz...

* * *

Kundalik turmush voqeligidan bo‘lakcha – boshqa bir olamlarning ko‘nikilmagan manzaralari chiziladi voqeliklarning barchasida. Ko‘pimiz ko‘nikkan hikoyalarning kutilmagan talqinlarini, bo‘lakcha yakunlarini taqdim etishga tomon, bo‘lak manzillar sari eltayotgan satrlar so‘qmog‘idan boyagi bolakay bilan eshqo‘sh enib borarkanman, xayollarning hov narigi tomonida hali ochilmagan boshqa sarhadlar ham borligini payqaganday bo‘laman.

Qissani o‘qiganim sayin uning ochilmagan tilsimlari hali ko‘p ekaniga ishonib borardim. Mutolaa yakuni yaqinlasharkan, bolakayning boshidan o‘tgan voqealarga juda o‘xshash holatlar hikoya qilinayotganiga e’tibor qildim. Eng so‘ngida bolaningmi yo mening ko‘z oldimda chizila boshlagan manzara avvalgilarining hammasidan oshib tushdi – eski uyning tomida g‘alati kitob mutolaasiga mukkasidan ketgan boshqa birimi yo xuddi o‘sha bola?! Bir zumga kallam ishlamay qoldi – bo‘lishi mumkin emas – bolakay qo‘lida tutgan bu kitob, aslida, uning o‘zi haqida, butun hayoti tafsilotlari haqida uning o‘ziga hikoya qilmoqda edi!..

To‘g‘risini aytsam, kitoblarni saralab o‘qishga ko‘nikkan kaminangiz qissani bir o‘tirishda yutoqib o‘qib tashladim. Xayollarni har ko‘yga solib, eslarni ham esankiratib qo‘yar bu qissaning sirli so‘qmoqlari bo‘ylab, Abdulqayum-Mashrab ila birga qadam tashladim. Faqat eng so‘ngida, muallifga ayrim e’tirozlarimni ham izhor qilgim kelib turibdi. Gap shundaki, ayrim o‘rinlarda voqealarmi yo hikoyalar to‘kis yakuniga yetib bormaganday ko‘rindi. Jumladan, Mangu-momoning urushda bedarak ketgan o‘g‘illarining keyingi qismati sirli kitob ko‘magida oydinlashtirib berilsa yana ham boshqacha tugallik bo‘larmidi? Shuningdek, Abdulqayum-Mashrab tuzukkina xat-savodini chiqarib olgach, har turli sarguzasht kitoblar mutolaasiga mubtalolikka yo‘liqqanini aytarkan, bir safar Jonatan Sviftning Gulliveriga hamrohlik qilib, u bilan birga goh Liliputiyada, goh esa Darozlar mamlakati-yu Guigngnmlar yurtida, eh-he, ne-ne sarguzashtlarni boshidan kechirganini so‘zlaydi. Yana bir gal kimsasiz orolda Robinzon bo‘lib umrguzaronlik qilgani-yu, Servantesning la-Manchlik Don Kixotiga ergashib, Dulsineya ishqida misli ko‘rilmagan jasoratlarga qo‘l urganidan xabar beradi. Boshqa safar isyonkor sipohilar sardori – kapitan Nemo siymosida suv ostida sakson ming kilometr suzib, “Nautilus” qadami yetgan har joyda mazlumlarga ko‘makdosh bo‘lgani va zolimlarga qarshi ayovsiz kurashib, Britan bosqinchilari oyoqlari ostida xor-u zor Boburiy Hindiston uchun intiqom olganidan bahs etadi. Ammo, qissada bu voqealarning ham davomiga duch kelmaymiz. Xuddi qildan qiyiq qidirganday, kitobdan shunaqa ijikilab kam-ko‘st izlaganday bo‘lyapman-u, ammo shu payt kallamga urilgan bir o‘ydan hushyor tortdim. Gap shundaki, ayrim adiblar asarlari ichiga g‘alati qopqonlar qo‘yishni yoqtirishlaridan boxabarman. Adabiy tuzoqqa o‘xshagan bunaqa hiylalar domiga ilingan sho‘rlik o‘quvchi asarning oxirigacha voqealarmi yo syujet yetovida lo‘killab borishga mahkum. Oxiri omadi chopib, o‘sha tuzoqdan eson-omon qutulib olsa, xo‘p-xo‘p, bo‘lmasa-chi? Bo‘lmasa nimayam bo‘lardi – filmning keyingi seriyasini kutgan ko‘rarmonga o‘xshab, qolganini kitobning keyingi qismida o‘qirman, deganday ilinj bilan kifoyalanishga majbur. Xullas, shularni xayolimdan o‘tkazib, “Ming bir kitob” muallifi ham davomini yozsa kerak va kelgusi kitobning yana ham ko‘lamdor kengliklarida, qiyomiga yetmagan boyagi sarguzashtlarning davomi bir-bir bog‘lanib borsa ajab emas, degan tusmol umid va istak bilan yozganlarimga nuqta qo‘ydim.

Murod CHOVUSH


LUQMON BO‘RIXON – “QUYOSH HALI BOTMAGAN”

Qishloqda katta bo‘ldim. Yoshligim dehqonchilik ichida o‘tdi. Har bir kunning o‘z ishi bo‘lardi. Har doim quyosh botgunga qadar yakunlashga harakat qilardik. Chunki shomdan uyog‘i zimiston…

Bir kunni inson umriga ham mengzash mumkin – quyosh yaraqlab chiqishidan tortib, qontalash osmon ko‘ksiga cho‘kkuniga qadar oraliqni. Ha, ha, shunday. Nima qilmoqchi bo‘lsang, orzularing, rejalaring umuman olganda nimang bo‘lsa shomgacha yashab qol. Chunki shomdan uyog‘i zimiston, o‘lim…

O‘zbekning katta yozari Luqmon Bo‘rixon ham hali quyosh botmagan ekan yashashga, sevib-sevilishga, o‘rganishga, sog‘inishga, kechirish-kechirilishga imkon borligini so‘zga soladi. So‘zlarki chanqovuzning dovushidek o‘zgacha, o‘zbekcha ohang taratadi o‘zidan.

Asarda siyosat ham, do‘stlik-u sadoqat ham, sevgi-yu xiyonat ham, kurash-u adolat ham bor. Hayotda nima bo‘lsa bari bor. Birisi ozroq, birisi ko‘proq. Aralash-quralash, omuxta lekin mazali.



Inson qalbi, tuyg‘ulari, kallasining ich-ichidagi o‘ylovlari so‘zlarga juda ustalik bilan ko‘chirilgan. Ba’zida sevinganingda, jahling chiqqanida, sog‘inganingda yoki xo‘rliging kelganida har doimgidan o‘zgacharoq his qilasan o‘zingni.

Kimgadir buni tushuntiray desang mos so‘z topolmaysan. His qilgan narsang yap-yangidek, odamzod orasida buni endigina, birinchi bo‘lib sen his qilyapsan-u buni izohlaydigan so‘z hali o‘ylab topilmagandek go‘yo.

Yozuvchilarning kuchi esa ana shunday hissiyotlarni so‘zga sig‘dira bilishi, buni o‘quvchiga yetkaza olishi bilan o‘lchanadi nazarimda. Luqmon Bo‘rixon ana shu narsani “Quyosh hali botmagan” asarida tabiat yordamida amalga oshiradi.

Nursultonning alamzada kayfiyatini tasvirlay turib shomga yaqin paytdagi osmonga “mag‘zavasi to‘kilmagan tog‘araday” deb chizgi beradi. Sevganidan iliq gap eshitganida esa “bahor o‘tiga to‘ygan sigirdek” deya kayfiyatini ochib beradi.

Bahorning o‘ti barra, suvli, to‘yimli va mo‘l bo‘ladi. Ana endi buni sevgiga bog‘lab tasavvur etib ko‘ring. Kitobda bunday tasvirlar juda ko‘p. Har bir so‘zga sig‘dirish qiyin bo‘lgan ruhiy holat tabiat yordamida chizib ko‘rsatiladi.

Asarning tag xulosasi shunday, agar hali vijdoning va qalbing but ekan niyatlarga, ko‘zlagan rejalarga erishish mumkin. Hamma-hammasiga O‘zi shifo, O‘zi davo beradi. Chunki hali tiriksan, chunki “Quyosh hali botmagan”…

@QORA_YIGIT

AJAL

Qorong‘ilikda o‘zimni noqulay sezaman. Sovqotyapman.

Bir necha soat oldin tungi qisqagina ishim menga birvarakayiga naqd besh ming dollar keltirishi kerak edi.

Pako ham keldi, ammo nimadir chappasiga ketdi.

Sirenalarning chirog‘i yuzimga nur sochadi. Oq xalatli odam oyog‘imning barmog‘iga yopishtirilgan yorliqdagi ism-familiyamni o‘qiydi. Men unga javob qaytarolmayman.

Tom Odenkrans

SEVISHGANLAR VA JIN

Sevishganlar kimsasiz sohilda sayr qilib yurib, Olovuddinning sehrli chirog‘ini topib olishdi. – Meni ozod qilishlaring evaziga, – dedi jin, – har biringning bittadan tilagingni bajo keltiraman.

Qiz yigitga ko‘z tashlab qo‘yib dedi:

– Istaymanki, biz bir-birimizni qiyomatgacha sevaylik.

Dengizga tikilgancha yigit:

– Men esa o‘sha qiyomat hoziroq kelishini istayman, – dedi.

Devid V.Mayers

SO‘NGGI NASIHA

Uylarga tushishga odatlangan o‘g‘ri Billi o‘z ishining betakror lahzalarini yoqtirardi.

Bu tong u devor oshib, binoga kirdi. Barcha qimmatbaho taqinchoqlarni yig‘ishtirib olib, mashinasiga eltdi.

Bu payt qorni judayam ochgandi. Oynai jahon qarshisida tamaddi qilish uchun uyga oxirgi marta kirdi. Ovqatlanib bo‘lgach, tarrakday qotdi. Xonadon sohiblari kalamushlarni zaharlamoqchi edi.

Dolores Rup

MILLION DOLLARLIK BAZM

Charli oxirgi chaqasiga lotereya chiptasini sotib oldi va o‘n million dollar yutuq egasiga aylandi. Ko‘cha-ko‘ydagi oshna-og‘aynilari bilan yutuqni naq ikki hafta “yuvdi” va alal-oqibat ortiqcha yeb qo‘yganidan bo‘kib o‘ldi.

Hukumat uning millionlarini meros qilib oldi, ammo odamlar uning ismini hamisha yodlarida saqlashadi – u insoniyat tarixida eng katta bazm uyushtirdi, axir.

Ha, darvoqe, uning familiyasi nimaydi?

Dik Skin

QISQA HIKOYALAR



ENG QAYG‘ULI HIKOYA

Uch kishi to‘qsoninchi qavatga zinapoyadan ko‘tarila boshlashdi. Lift dushanbagacha ishlamas ekan, dam olish kunlari Semga u-bu hujjatlari kerak bo‘lib qolgandi. Qavatma-qavat ko‘tarilisharkan, vaqtni o‘ldirish hamda zerikib qolmaslik uchun galma-gal turli-tuman – quvnoq va qayg‘uli hikoyalarni aytib berishga kelishib olishdi. Nihoyat, to‘qsoninchi qavatga chiqishganda, eng qayg‘uli hikoyani Sem aytib berdi.

– Pastda kalitni unutib qoldiribman, – dedi-yu, behush bo‘lib yiqildi.

Norman va Ben Lir

SINFDOSH DUGONALAR UCHRASHUVI

Maktabda ular oralaridan qil o‘tmas dugona edilar.

– Qo‘ng‘iroq qilib tur, unutib yuborma, – dedi u dugonasiga bitiruv oqshomida.

– Albatta, sen ham.

Maktabni bitirganlariga ellik yil to‘lishi munosabati bilan uyushtirilgan sinfdoshlar uchrashuvida ular shu payt davomida birinchi marta gaplashishdi.

– Seni ko‘rganimdan xursandman.

– Men ham.

– Qo‘ng‘iroq qilib tur, unutib yuborma.

– Albatta, sen ham.

Devid Xofman

DUBLYOR

– Spektaklni qoldirolmaymiz. Shou davom etishi kerak, – dedi rejissyor pyesaning birinchi pardasi boshlanishidan bir lahza oldin mashhur aktyor behush bo‘lib yiqilganda. – Bugun u yulduz, har holda, shunchaki o‘likning rolini o‘ynamaydi-ku.

Dublyor barchaning ko‘z o‘ngida yuksaldi. Uning ijrosi ilhombaxsh chiqdi. Yangi yulduz yakunlovchi sahnada rolini qoyillatdi.

Dublyor cho‘ntagidagi shpritsni barmoqlari bilan silab-siypab, olqishlar ostida ta’zim bajo etdi.

Shiri Peleme

GUL VA MUHABBAT

Tina bog‘da turar ekan, uning o‘zi tomon chopib kelayotganini ko‘rdi.

– Tina! Mening gulim! Hayotim!

Nihoyat shu gapni aytdi-ya!

– O, Tom!

– Tina, o, gulim!

– O, Tom, men ham seni sevaman!

Tom Tinaga yaqin keldi-da, uni nari itarib, engashdi.

– Mening gulim! Sevimli atirgulimni bosib olding!

Xoup Ey Torres

JUMBOQ

– Bugun juda mamnun ko‘rinasiz, Vatson.

– Kechirasiz-u, Xolms, bu safar jinoyatni ikki dunyoda ham fosh qilolmaysiz.

Xolms o‘rnidan turib, trubkasini jo‘shqinlik bilan silkita boshladi.

– Yana xato qilyapsiz, deb qo‘rqaman, Vatson. Missis Vorsingtonni kim o‘ldirganini bilaman.

– Juda qiziq! Na guvohlar, na dalil-isbot bor! Xo‘sh, kim qilibdi bu ishni?

– Men, Vatson!

Tom Ford

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimalari

SHON-SHUHRAT QADRDAN USTUNMI?

Kitobxon nigohida

Shon-shuhrat qizlar kelajagidan muhim bo‘lib qolgan joyda ayol faqat chidashga majbur bo‘ladi. Shukur Xolmirzayevning “Kechagi kun kecha” hikoyasida Sobirova opa o‘z obro‘sini o‘ylab, o‘tmish bilan yashaydi. “Ko‘zini yog‘ bosgan”, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U o‘z qizining hayotini boshqalarning gap-so‘zlariga ishonib, o‘tmishdagi kommunistik partiya a’zoligini va mansabni qadrlash kabi eskicha qarashlarga qurbon qiladi. Natijada u haqiqiy hayot va insoniy iztiroblarning mohiyatini anglay olmay qoladi.

Agar Sobirova opa Unsinovaning uni ishdan bo‘shatgandan keyin beqorga yo‘qlab kelmaganini vaqtida anglaganida, balki o‘g‘li Kamolning gaplari naqadar to‘g‘ri ekanini tushungan bo‘lardi. Orzu-havasning ortiqchasi insonni ko‘pincha nadomat botqog‘iga yetaklaydi. Aslida, bu yerda gap faqat Sobirova opa yoki bitta qiz taqdiri haqida emas. Gap jamiyatning ayolga bo‘lgan munosabati haqida ketmoqda. Hikoyada qiz farzandning ko‘ngli emas, balki uning butun hayoti ostin-ustun bo‘lib ketadi. Uning baxti emas, odamlarning gapi ustun qo‘yiladi. Natijada esa qiz na erkin yashaydi, na o‘z taqdirini tanlay oladi — u faqat chidashga majbur bo‘ladi.

Shukur Xolmirzayev ushbu hikoya orqali shuni ko‘rsatadiki, shon-shuhrat va mansab ortidan quvish insoniylikni, mehrni va qadr-qimmatni asta-sekin yemiradi. Ota-ona “to‘g‘ri ish qildim”, deb o‘ylaydi. Ammo ichga yutilgan og‘riqlar, kechalari to‘kilgan ko‘z yoshlari va bir umrga cho‘zilgan sukut haqida farzand hamisha ham gapira olmaydi. Ana shu sukut esa eng og‘ir fojiadir.

Eng achinarlisi shundaki, bu holat faqat kechagi kunga xos emas. Bugungi kunda ham shunga o‘xshash voqealar haqida tez-tez eshitib turamiz. Demak, “Kechagi kun kecha” hikoyasi faqat o‘tmish haqida emas, balki bugungi kun uchun ham yozilgan asardir.

Xulosa qilib aytganda, talashib-tortishiladigan shon-shuhrat hech qachon inson qadridan ustun bo‘lmasligi kerak. Agar jamiyat qizlar kelajagini obro‘ va mansab nomidan qurbon qilishda davom etsa, kechagi kun xatolari bugun ham takrorlanaveradi. Inson qadri, uning orzu-intilishlari va qalbi har qanday shon-shuhrat hamda obro‘dan muhimdir.

AZIZA HASANOVA

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma № Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO‘RAQULOVA

ISSN 2091-5497